

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi

**O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining
Farg‘ona mintaqaviy filiali**

Toshpo‘lat Akbarov

VOKAL

5150300 – Aktyorlik san’ati: musiqali teatr aktyorligi

Qo‘qon – 2019

Annotatsiya: Musiqa janrlari ichida vokal janri eng qadimgi paydo bo'lgan tur hisoblanadi. Bundan tashqari, insonlar tarafidan eng ko'p tinglanadigan, bastakorlar tarafidan esa ko'p bora murojaat qilinadigan san'at turi sanaladi. Buning boisi shuki, bu san'atning quroli bo'lib bevosita inson ovozi xizmat qilishidir. Ushbu o'quv qo'llanma "Vokal" faniga tayyorlangan bo'lib, unda bo'lg'usi vokal ijrochilarining ovozlari, uning gigiyenasi, qo'shiqchining ijrochilik mahorati, talabalarni qo'shiq ijrochiligiga tayyorlash bo'yicha mavzular berilgan. O'quv qo'llanmadan oliy o'quv yurtlarining musiqa ta'limi yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar, musiqa o'qituvchilari va pedagogik kollejlarning musiqa bo'limi o'quvchilari foydalanishlari mumkin.

Annotation: The vocal genre in musical genres is the earliest known types. In addition, it is often considered the most attractive. This textbook prepared on the subject of "Vocal" includes the following topics: the voices of vocal performers, its hygiene, the skill of the artist, the preparation of students for singing. The textbook can be used by students studying in higher education institutions for music education, music teachers and music students in pedagogical colleges.

Аннотация: Вокальный жанр в музыкальных жанрах является самым ранним из известных видов. Кроме того, его часто считают самым привлекательным. Данное учебное пособие подготовленное по предмету «Вокал», который включает следующие темы: голоса вокальных исполнителей, его гигиена, мастерство артиста, подготовка студентов к пению. Учебное пособие может использоваться студентами, обучающимися в высших учебных заведениях по музыкальному образованию, учителями музыки и студентами музыки в педагогических колледжах.

Muallif: O'zDSMIning Farg'ona mintaqaviy filiali katta o'qituvchisi – Toshpo'lat Akbarov.

Taqrizchilar: O'ZDSMIning Farg'ona mintaqaviy filiali dotsenti – Shamsiddin Usmonov.

QDPI dotsenti – G'ayratjon Najmiddinov

Ushbu o‘quv qo‘llanma O‘ZDSMIning Farg‘ona mintaqaviy filiali o‘quv-uslubiy kengashining 2019-yil -_____ kuni o‘tkazgan yig‘ilishida _____-bayonnomasi bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

Kirish

Inson paydo bo'libdiki, o'z his-hayojonlarini orzu-o'ylarini kuy-ohang bilan ifodalashga harakat qilgan. Ushbu qo'llanmada vokal va zamonaviy musiqa fanining O'zbekistonga kirib kelishi hamda birinchi qo'shiqchilar va ijro uslublari haqida so'z boradi.

Istiqlol sharofati bilan yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidan borar ekanmiz, jamiyatimizning barcha sohalarida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama mukammal inson qilib tarbiyalash hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo'lib turgan bir paytda, xususan, talantlarga pedagogik mahorat sirlarini o'rgatib borish o'ta zarurligini hayot taqozo etadi.

Bo'lajak musiqa mutaxassislari yosh avlod ongiga yuksak tuyg'ularni singdirish, ularda ona-Vatanga muhabbat, go'zallikka intilib yashash, uni asrash va yaratishga bo'lgan ishtiyoq uyg'otuvchi kasb egalari hisoblanadilar.

Bilamizki, "Vokal" so'zining ma'nosi nemis tilida "unli tovush" ma'nosini beradi. Vokal janri musiqa janrlari ichida eng qadimiysi hisoblanadi. Vokal janrini keng ma'noda tushunish kerak. Vokal yo'nalishining vatani Italiya hisoblanadi.

Qadimda Italiya cherkovlarida qarovsiz qolgan yetim bolalar orasidan musiqiy qobiliyati bor bolalarni tanlab olinib, cherkov xori uchun qo'shiqchilar tayyorlangan.

Vokal janrining alohida musiqa janri bo'lib shakllanishida xristian diniga e'tiqod qiluvchi cherkovlarning hissasi katta bo'ldi. Eramizning VII-VIII asrlaridan boshlab juda ko'p kompozitorlar cherkov xorlari uchun Iso va uning izdoshlarini madh etuvchi ko'plab kontatolar, ariyalar yaratishgan.

Bizning O'zbekistonimizga Vokal janri 1930-yillardan keyin kirib keldi. Dastlab Moskva Opera studiyasida iqtidorli o'zbek yoshlaridan: Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Sattor Yarashev, Nasim Hoshimov, Karim Zokirov kabi zabardast san'atkorlar tahsil olib, yetishib chiqdi. Keyinchalik Toshkent davlat konservatoriyasi ochilishi bilan vokal qo'shiqchilari shu yerda tahsil ola boshladilar. Ular orasidan xalqaro vokalistlar konkursi lauriatlari Ismoil Jalilov, Po'lat Minjirkeyev,

M.Hojiniyozov, Muyassar Razzoqova, Sofiya Soy kabi ko‘plab yetuk opera ashulachilari yetishib chiqdi.

O‘zbekistonda vokal janrini rivojlanishida taniqli kompozitorlardan Mutal Burhonov, Tolibjon Sodiqov, Muxtor Ashrafiy, Sulaymon Yudakov, Sharif Ramazonov, Hamid Rahimov, Sobir Boboyev, Matniyoz Yusupov kabi ko‘plab kompozitorlar o‘zlarining barakali, sermazmun ijodlari bilan katta hissa qo‘shdilar.

“Vokal” so‘zining lug‘aviy ma’nosi bizda qadimdan mavjud bo‘lgan aytinga to‘g‘ri keladi. Shunga ko‘ra “vokal” istilohi tarixiy ijtimoiy, ma’daniy-ma’rifiy jarayonlarning ajralmas bir bo‘lagi sifatida qadim zamonlardan beri yashab kelyapti. O‘zbek xalqi madaniy hayotiga XIX asrning ikkinchi yarmidan kirib kelib, san’at janrini ifodalay boshlagan vokal tushunchasi YEvropada uzoq tarixga ega bo‘lib, uning genezisi antik davr diniy marosimlari ijro jarayoniga borib bog‘lanadi. Antik Yunon madaniyati tarixi shunga guvohlik beradiki, Yunonlarning e’tiqodiy marosimlari toat-ibodatlar asosan so‘z, musiqalar, muayyan ritmlar sistemasini o‘zida mujassam etgan. Yaratganga qilgan toat-ibodatlar, duo-iltijolar mana shu tarzda ijro etilsagina ijobat bo‘ladi, degan aqida bugungi vokal san’atining dastlabki namunalarini yuzaga keltirgan. Qadim Yunonistonda ayni tarzdagi ijro “difiramalar” deb atalgan. Xuddi shunday jarayonga doir fikrlarni biz qadim Shumer, Xitoy, Hind, Misr madaniyatiga doir tadqiqotlarda ham kuzatamiz.

Milodiy birinchi asrdan boshlab Yevropaning madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan Italiyada ilk bor masihiylik e’tiqodi, shu asosda masihiylik cherkovlari va diniy marosimlar tizimi paydo bo‘ldi. Ushbu tizimda ham, asosan, so‘z ritmi uyg‘unligida ijro etilgandagina diniy marosim to‘laqonli amalga oshadi, degan an’ana davom ettirildi. Diniy marosimlardagi ibodat shakllari masihiylikning mas’habi va muayyan hududiga qarab goh musiqa jo‘rligida, gohida esa musiqa jo‘rligisiz (akapella) ijro etilgan. Eng muhimi, ibodat marosimlari qay tarzda ijro etilishidan qat’i nazar so‘z ritm bilan uyg‘unlashib kelganki, bu keyinchalik biz bugun vokal deb nomlayotgan janrga poydevor vazifasini bajargan.

Vokal tarixiga nazariy adabiyotlarning guvohlik berishicha, Yevropa vokalinig markazi va tarixiy jihatdan eng qadimiysi Italiya hisoblanadi. Bu dalil

vokal san'atining asosi diniy marosimlar ekani haqida yuqoridagi fikrlarni asoslashi bilan bir qatorda, zamonaviy vokal san'atining o'chog'i nima uchun Italiya bo'lganligi tog'risidagi savollarga ham javob beradi.

Shuning uchun ham, vokal tarixining umumiy tasnif etganimizda ro'yxatning boshida Italiya vokal maktabi keladi. Yevropa vokal san'atining shakllanishi va taraqqiyotida qadim Italyan vokal maktabi asoschilari Petrov Tozi, Giambattista Manchini, Jo'zef Sarlino, L.Yudoviko Sakkoni, Juliyo Kachchini (XVI-XVII asr) xizmatlari katta. Keyinchalik fransuz vokal maktabidan Jan Baptist Berar, Genrix Ferdinand Manshteyn, nemis vokal maktabidan Lilli Leman, rus vokal maktabidan M.I.Glinka, A.E.Varlamovlarning salmoqli faoliyatlarini qayd etish lozim. Shuni alohida qayd qilish joizki, professional vokal tarixida vokal san'ati amaliyotchilari bilan bir qatorda nazariyotchi olimlar ham faoliyat ko'rsatib kelishgan. Lekin bu o'rinda vokal nazariyotchilari bilan amaliyotchi vokalistlar o'rtasiga ulkan devor qo'yib bo'lmasligini ta'kidlash lozim. Chunki vokal san'ati tarixida vokal nazariyasi va amaliyotini uyg'un holatda olib borgan shaxslar ham talaygina. Bunga misol sifatida Manuel Garsia, M.I.Glinka, F.I.Shalyapinlarni keltirish mumkin.

Yuqorida qisqacha ekskurs qilingan Yevropa vokali o'zbek san'ati tarixiga Turkistonni Chor Rossiyasi tomonidan ishg'ol etilganidan keyin kirib kelgan. Ammo bu degani o'zbek vokali tom ma'noda Yevropa vokal san'atining ta'sirida shakllanadi, degani emas. Balki, o'zbek vokal san'ati tarixi ham turkiy xalqlar madaniyatining uzoq tarixiga borib taqaladi. Ma'lum ma'noda vokal san'atining din va jamiyat e'tiqodi bilan bog'liqligi o'zbek vokal tarixi jarayonlariga ham tegishli. Xususan, maqom tizimining bevosita tasavvur falsafasidan kelib chiqishi mashhur mutasavviflar – Abu Homid G'azzoliy, Jamoliddin Rumi, Farididdin Attor, Ahmad Yassaviy, Sofi Olloyor, Sulaymon Boqirg'oniy, Mashrablar ilmiy-amaliy faoliyatida o'z aksini topadi. Maqom esa So'fining Olloh tomon intilish yo'lidagi qalb va zikr maromini o'zida aks ettiradi. Demak, vokal san'ati bir qadar murakkabroq va tizimliroq tarzda sharq xalqlari tarixida ham mavjud bo'lgan. Ayni jarayonlar amaliy manbalar asosida Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Abdulqodir Marog'iy, Darvesh ali Changiy, Komil Xorazmiy, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla

Avloniy tomonidan nazariy o'rganilgan va targ'ib etilgan. Faqat sho'ro davriga kelib, Yevropa uslubidagi vokal san'atini o'zbek aytim yo'llariga singdirish va ko'p hollarda o'zbek xonandalariga Yevropa vokal yo'llarini tog'ridan tog'ri ijro ettirish urfga kirdi. Muhiddin Qori Yoqubov, Bobarahim Mirzayev, Karim Zokirov singari xonandalar sho'ro san'at siyosatining oqibati o'laroq tom ma'noda Yevropa uslubidagi vokal ijrochilari hisoblanishadi. Halima Nosirova, Saodat Qobulova, Sattor Yarashev, Ergash Yo'ldoshev, Abdulla Bozorov, Muyassar Razzoqova, Ismoil Jalilovlar ijrochilik faoliyatida esa ham Yevropa, ham milliy vokal san'ati uyg'unlashganini kuzatamiz.

Vokal fanining asosiy maqsadi bo'lajak vokal jamoalariga rahbarning kasbiy mahoratini oshirish, nafas olish, diksiya, so'z tanlash, qo'shiqning yuksak saviyada ijro qilish malakasini hosil qilishdan iborat. Fanning asosiy vazifasi yosh mutaxassislariga kelajakda havaskorlar bilan ishlash yo'llarini o'rgatish, vokal ijrochiligi yutuqlarini amalda tadbiq qilish kabi ishlardan iborat.

Nazariy qism

1. “Vokal” fanining maqsad va vazifalari

Talabalarning estetik, g‘oyaviy va badiiy tarbiyasi muvaffaqiyat bilan amalga oshirilishida, xususan, ularning zamonamizning har jihatdan yetuk, didi baland, tabiati nozik, go‘zallikning qadriga yetadigan kishilar bo‘lib yetishishlarida badiiy havaskorlikka va qo‘shiqchilikka asos bo‘ladigan vokal ijrochiligi fanining roli ahamiyatlidir.

Oliy o‘quv yurtlarida talabalarning estetik tarbiyasini rivojlantirishda vokal ijrochiligi fanining tutgan o‘rni, o‘quv metodik qo‘llanmalar bilan ta‘minlanganligi, vokalistlarning repertuariga tanlangan qo‘shiqlar, ularning yosh xususiyatlariga mosligi, talabalar tarbiyasiga, ayniqsa, estetik tarbiyasiga ta‘siri, pedagoglar jamoasining talabalarda vokal ijrochiligi bilan estetik tarbiyani taraqqiy ettirishdagi ish tajribalarini o‘rganish va ularni umumlashtirish “Vokal” fanining oldidagi yuksak vazifalaridandir.

Oliy o‘quv yurtlari yoshlarga izchil bilim berish bilan birga ularning qobiliyatlarini ham o‘stirmoqda, talabalarni barkamol rivojlantirish yuksak axloqiy me‘yorlarda tarbiyalashdek ulug‘vor vazifani ado etmoqda. Bilim dargohida vokal asoslarini o‘tishdan maqsad talabalarning estetik qobiliyatlarini o‘stirish, ularning iste‘dodlarini shakllantirishdan iborat.

O‘quv dasturlariga muvofiq talabalarni o‘zbek kompozitorlarining vokal, shuningdek, o‘zbek, rus, qardosh va chet el xalqlarining ijodi bilan tanishtirish ko‘zda tutiladi. Birinchi va ikkinchi bosqich talabalarida vokal malakalari hosil bo‘la boshlaydi, yuqori bosqichlarda bu malakalar shakllanadi va o‘sadi. Vokal darslari jarayonida talabalarga turli xil vokalistlar va kompozitorlarning yoshlarga atab yozgan asarlari o‘rgatib boriladi.

Talabalarning vokal san‘ati sirlarini egallab, o‘zlaridagi talant kurtaklarini o‘stirishlari va kelgusida yangi vokalist bo‘lib yetishib, madaniyatimiz rivojigi munosib hissa qo‘shishlari ko‘p jihatdan rahbarning xizmati va tashabbuslariga bog‘liqdir.

Talabalarining vokal mashg'ulotlarda qatnashishlari ularning tushuncha doiralari yanada kengaytiradi, iste'dod kurtaklarining gul ochishi jarayonini tezlashtiradi, ma'naviy kamolot sari yetaklaydi. SHuning uchun ham o'quv dargohlaridagi o'tilayotgan vokal ijrochiligi fanining zimmasida turgan vazifalar nihoyatda muhim ma'suliyatdir. Bu vazifani ado etishda barcha imkoniyatlar va vositalarni ishga solish, rezervlaridan unumli foydalanish ta'siridan usullar izlab topish va samaradorlikka erishish talab etiladi.

Ta'lim olayotgan talabalarni ona-Vatan va xalqimizga mehr-u muhabbat va sadoqat ruhida tayyorlashda, ularning qardosh xalqlarga nisbatan do'stlik va birodarlik tuyg'ularini kuchaytirishda vokal ijrochiligi fani muhim rol o'ynaydi. Vokal fanining mashg'ulotlari ham boshqa mashg'ulotlar singari vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga xizmat qilishi, bu narsa vokal ijrochiligi ishining asosiy o'zagi hamda mohiyatini tashkil qilishi lozim. Shu sababli vokal ijrochiligi o'qituvchisi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklanadi, undan talabalarning taqdiriga qayg'urish, unga befarq qaramaslik talab etiladi. Chunki talabalarning estetik tarbiyasi, go'zallikka munosabatlari, ma'naviy yuksalishlari, iste'dodlarning yo'nalishi asosan, peadgogning tajribasi, jonkuyarligi va mahoratiga bog'liqdir.

Vokal mashg'ulotlarida talaba o'rganib olgan har bir qo'shiq uning ma'naviy olamini boyitib, Vatanga bo'lgan mehrini oshiradi. Qo'shiqning matni ijrochiga tushunarli va zavqli bo'lgan taqdiridagina talaba uni tezda yodlab, musiqasini ham o'zlashtirib oladi, nozik tomonlarini yengil ilg'aydi, sehrini sezadi. SHundan so'ng uni sevib ijro qilishga kirishadi va boshqalarni ham zavqlantira oladi.

Mashg'ulotga kiruvchi har bir talaba ona-Vatan haqidagi yangi qo'shiqni o'rganishi bilan uning Vatan haqidagi tushunchalari yanada kengayib, tasavvuri boyiydi. Unga o'rgatiladigan asar har jihatdan sayqal topgan, g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk va yoshiga munosib bo'lishi kerak.

Vokal o'qituvchisi talabalarga biror vokalist yoki qo'shiqni o'rgatishidan oldin uning muallifi, asar qachon yaratilganligi va kimga, qaysi mavzuga bag'ishlanganligi xususida so'zlab, uning tarbiyaviy ahamiyatini ham tushuntirishi kerak. Qo'shiq

muallifi bo'lgan bastakor va shoir haqidagi hikoya esa o'quvchilarning qo'shiq haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytiradi.

Vokal o'qituvchisi o'z ishida talabalarda musiqaning sezishi, ritm tuyg'usi va musiqa xotiralarini o'stirishga alohida e'tibor berishi kerak. Mabodo bu komponentlardan birortasi unutiladigan yoki e'tibordan chetda qoladigan bo'lsa, ishga katta ziyon etadi, chunki bu komponentlarning har biri xonandani shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Vokal mashg'ulotlari maxsus ajratilgan, chiroyli bezatilgan, estetik jihatdan yaxshi, badiiy didga ham muvofiq holda jihozlangan xonalarda bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu xonalarda texnika vositalarini, madaniyatimizning taniqli namoyondalarining portretlarini, vokal san'ati, musiqaga oid adabiyotlar, chiroyli plakatlar, stendlar va boshqa materiallarni qo'yish mumkin. Har jihatdan yaxshi va chiroyli qilib bezatilgan hamda ko'ngilni yayratadigan bunday xonalar a'lo ijodiy vaziyatni vujudga keltiradi, talaba ruhiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, badiiy didni oshirishga ko'maklashadi.

Vokal bo'yicha repertuardagi eng yaxshilari, manzur bo'lganlari puxta tanlangandan so'ng talabalarga o'rgatiladi. Shuning uchun fanning dasturidagi asarlar miqdori ko'p va rang-barang bo'lishi, uning ijrolari doimo muvaffaqiyatli o'tishi va hammada chuqur taassurot qoldirishi lozim.

Talabalarda estetik didni tarbiyalash ko'p jihatdan vokal o'qituvchisining o'z ish faoliyatiga qo'llaydigan metodikasiga bog'liq. U ish boshlashdan avval talabalar bilan birma-bir va yaxshilab tanishishi hamda darsda mas'uliyat sezgan holda ish olib borishi zarur.

Talabalarning darsda qo'shiq o'rganishlari muntazam, to'g'ri tashkil etilishi ularning darsda o'rganganlarini bir-birlari bilan o'rtoqlashishlariga qulaylik yaratadiki, buning ishga foydasi katta. Binobarin, har bir talaba darsda o'rgatilayotgan qo'shiqning ohangini o'ziga qabul qiladi, o'zlashtiradi. Uning bu boradagi xato va yanglishuvi pedagogga ham, tevarak atrofdagilarga ham ma'lum bo'ladi. Darsda o'zaro aloqa va harakatning yaxshi yo'lga qo'yilishi ishga bunday xatolarning vaqtida oldini olim imkoniyatini beradi. Talabalarning taassuroti kuchli,

bilish imkoniyatlari keng bo'ladi. Shu sababli vokal o'qituvchisi bundan mohirlik bilan foydalanishi zarur.

Vokal mashg'ulotlarida ijrochilar ham, tinglovchilar ham estetik kechinmalar his qiladilar. Buning uchun qo'shiq ijrochilari aytilayotgan asarning mohiyatini chuqur ochib berishlari, ijroda mahorat ko'rsatishlari lozim. Shundagina kutilgan natijaga erishilib, ijrochi ham, tinglovchi ham zavqlanadi, asarning ham ta'sir kuchi oshadi, tinglovchi qalbida jo'shqin his-tuyg'ular uyg'otadi. Bu esa o'z navbatida vokal ijrochisini tarbiyalash bilan bir qatorda boshqalarga ham emotsional tuyg'u tarbiyasini yo'lga qo'yishiga xizmat qiladi. O'z mohiyatiga ko'ra estetik tuyg'ularni o'stirishga qaratilgan bu tarbiya qo'shiqqa ijodiy munosabatda bo'lish, undagi so'zlarni to'g'ri aytish va uning ta'sirchanligini oshirishni taqozo etadi. Shundagina qo'shiq aytish chinakamiga estetik tarbiya jarayoniga aylanadi. Bu masala talaba ovozlari tarbiyalash nuqtai nazaridan ham, asarga emotsional munosabatda bo'lish nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga egadir.

Talabani ovozini to'g'ri tarbiyalash, uning musiqa sezgirligini har tomonlama rivojlantirish vokal o'qituvchisining birinchi navbatdagi vazifasidir. Vokal jarayonida bu vazifaning to'g'ri bajarilishi har bir talabadagi musiqa sezgisining o'sishini ta'minlashga yaxshi yordam beradi. Undan qobiliyatni to'la-to'kis namoyon bo'lishiga keng yo'l ochadi.

Vokal darslarini musiqa materiallarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Biz musiqa materiallari deganda talabalarga o'rgatiladigan asarning matni va unga yozilgan musiqani ko'zda tutamiz.

Vokal darslariga qatnashayotgan talabalarga to'g'ri kelgan qo'shiqni o'rgataverish yaramaydi. Bunda, yuqorida qisman to'xtalib o'tganimizdek, talabalarning ovoz imkoniyatlari va musiqa qobiliyatlarini hisobga olgan holda ish olib borish talab etiladi. Vokal o'qituvchisi yosh vokalistlarga o'rgatiladigan qo'shiqlarni tanlaganda birinchi navbatda uning tarbiyaviy ahamiyati, g'oyaviy-badiiy qimmati va estetik xususiyatini ko'zda tutmog'i lozim. Bu tadbir talabalarning estetik didi va qobiliyati hamda ovozi me'yoriy o'sishiga olib keladi.

Bu sohadagi yana bir jiddiy kamchilikni aytib o'tish lozim. Oliy dargohda ayrim vokal o'qituvchilarining savodi yetarli emas, ularning o'quv malakasi past bo'lgani tufayli vokal darslarini nomigagina o'tadi, nota savodini o'tmaydi, ba'zilari hatto notani bilmaydi. Ular pianino u yoqda tursin, boshqa musiqa asboblarni chalishni ham bilmaydilar. Ularda repertuar tanlash, talabalarning vokal imkoniyatlarini hasobga olish degan narsini o'zi yo'q, talababop qo'shiqlar nazar-e'tibordan chetda, quloqqa chalinib qolgan yaxshimi-yomonmi o'rgatilaveradi. Uning tarbiyaviy ahamiyatiga sira ham e'tibor berilmaydi.

Oliy ta'lim talabalariga o'quv fanlari qatorida musiqa nazariyasi va solfedjio fanlarining o'qitilishi vokal ijrochiligi ishini anchagina yengillashtiradi. Talabalarning savodli bo'lishi qo'shiq notasidagi musiqa belgilarini o'qishlariga imkon yaratadi. Bu ham vokal darslarining ko'rsatmali materiallar va musiqa ilyustratsiyalaridan foydalangan holda olib borilishini taqozo qiladi.

Talabalar navqiron yoshda bo'lganliklaridan har narsaga qiziqaveradilar, quloqlariga yaxshi eshitilgan qo'shiqlarni o'zlaricha aytishga harakat qiladilar. Shuning uchun vokal o'qituvchisi material tanlashga alohida e'tibor berishi lozim. Tanlangan qo'shiq materiali qanchalik mukammal va jozibali bo'lsa, o'quvchilarni shuncha o'ziga tortadi. Bu qo'shiqni ijro etgan har bir talabaning qalbi Vatanimizga mehr-muhabbat va undan faxrlanish hissiga to'lib toshadi.

2. "Vokal" fanining taraqqiyot bosqichlari

Vokal hozirgi kunda keng tarqalgan asl xalq sa'nati turlaridan biridir. Vokal odamlarda chuqur estetik zavq uyg'otibgina qolmay, insoniy va ma'naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga yordam beradi. Vokal janri xonandalik jozibasi bilan hayratga soluvchi o'ziga xos san'atdir. U insonning eng yaxshi his-tuyg'ularini uyg'otib, hayajonlantirish, qiziqtirish xususiyatiga ega, shu sababdan vokal ijrochilari bilan bir qatorda tinglovchilarning ham badiiy-g'oyaviy tarbiyalanishidagi roli juda katta.

Tarbiya vositasi sifatida xor ijrochiligining an'analari qadim davrlarga borib taqaladi. Xalqimizning voqealarga boy bo'lgan butun tarixi qo'shiq bilan bog'langan

va unda o'z aksini topgan. Qo'shiqda va ayniqsa, vokal ijrochilardagi asarda umuman bir tomondan insonni jonlantiruvchi va botinan harakatga soluvchi sifatlar bo'lsa, boshqa tomondan mehnatni tashkil qilishga, birdamlik bilan biror maqsadga erishishga undovchi xislatlar bor. Shuning uchun mehnat ahli ish jarayonida ish kuchini birlashtirish uchun qo'shiqlardan keng ko'lamda foydalanadilar, ana shuning uchun ham musiqiy guruhlarda qo'shiqni joriy qilish talab etiladi. U bir qancha alohida tuyg'uni yagona kuchli tuyg'uga birlashtiradi va bir qancha qalbni yagona, teran his qiluvchi qalbgga aylantiradi, ko'pchilikning kuchi bilan bilim olish mashaqqatlari ustidan g'alaba qozonishi bu juda muhim. Bu mulohazalardan quyidagicha mulohaza qilish mumkin: talabalarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari va jamoa bo'lib birlashish kabi xislatlarini tarbiyalashda vokal ijrochiligi juda katta ahamiyatga ega.

Vokal san'ati bir tomondan ijrochilikning eng ommoviy shakli bo'lsa, boshqa tomondan aksariyat xislatlari bilan o'ziga xos individual xarakterga ega. Ijrochilik mahorati, kuylash usuli, repertuari, vokal o'qituvchisining qobiliyati kabi individual xarakterdagi xislatlar vokal jamoasining ijodiy "qiyofa"sini boshqasidan ajratib turadi.

Vokal musiqa san'ati turi sifatida ikki – akademik va xalq ijrochiligi yo'nalishlarida rivojlanib kelmoqda. Kuylash usuli, tovush hosil qilish xarakteri, ovozlarning tembr turlanishi, ijrochiligini texnikasi usullari va ifodalash vositalarining imkoniyatlariga qarab vokal ijrochiligi uslubi aniqlanadi. Akademik vokalning asosiy vazifasi o'zbek, rus va chet el klassik asarlarining eng yaxshi namunalarini ijro etish va targ'ib qilishdan iborat. Bu asarlar ijrochining akademik uslubiga to'g'ri keladi va akademik vokal xonandaligi maktabi hisoblanadi. Asarlar vokal o'qituvchisining boshchiligida va fortepiano jo'rligida ijro etiladi.

Yurtimizda mustaqillikning ilk yillaridan boshlab iqtidorli yoshlarning ijodiy yutuqlarini yanada rivojlantirish, targ'ibot-tashviqot qilish uchun imkoniyatlarning kengayganligi, milliy ta'lim tizimining chuqur isloh qilinishi vokal pedagogikasining vazifasidir.

Tariximiz taraqqiyotlarida musiqa san'atining barcha janrlari qatorida qo'shiqchilikning ham o'zining ma'lum tarixiga egadir. U ona allasidan boshlanib, olamga mashhur, yetuk qo'shiqchi darajasiga erishgan buyuk siymolarning bosib o'tgan yo'li kabi uzoq davrni o'z ichiga oladi.

Musiqamiz tarixida san'atning bu turiga bag'ishlangan juda ko'p ma'lumotlar, uni rivojlantirish yo'lida yozilgan ilmiy-metodik qo'llanmalar, tavsiyanomalar, to'plamlar ham anchagina mavjud. Shu bilan birga qo'shiqchilikning milliy xususiyatlari-yu, uni yanada rivojlantirish borasida erishilgan tajribalarni keng o'quvchilar ommasiga yoyishda va o'zlashtirishda ehtiyoj sezgan talabalarga ko'makdosh bo'ladigan asarlarni yaratish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biridir. Bunday asarlarni bir to'plamga jo qilib, to'plamga atoqli bastakorlar yaratgan, xalq ommasi orasida ommalashgan qo'shiqlar namunalari o'rin olgan bo'lishi zarur. Vokal janri san'ati bo'yicha o'qitish maxsus o'quv dargohlarida aytim darslarida olib boriladi. Unda ovoz hosil qilish malakalarilan tortib, xonandalik san'ati qamrab olinadi.

Ma'lumki, har qanday san'at o'z-o'zidan rivojlanmaydi. Unga xalq hayoti, voqealardagi jo'shqin o'zgarishlar, jamiyat rivojidadagi voqealar ta'sir berib, uni yo'lga solib, rivojlantirib turadi. Chunki san'atning ham ifoda obykti xalq hayoti, uning ishlari, o'sish-o'zgarishdagi muvaffaqiyatlaridir. San'at xalq hayoti bilan qanchalik chambarchas aloqada bo'lsa, u shunchalik rivoj topadi, asarlari hayotiy bo'lishi ta'minlanadi, yashovchan bo'ladi va xalq muhabbatini qozonadi.

O'zbek san'atining hozirgi ahvoliga nazar tashlaydigan bo'lsak, vokal janri ham jadal taraqqiy etayotganining shohidi bo'lamiz. Musiqamizning unisonlik darajasidan simfonik darajasiga, primitiv teatr tomoshalarining balet, opera saviyasiga etishganligi, xullas barcha turlar bo'yicha yangidan yangi janrlarda juda ko'plab asarlar vujudga kelganligi san'atimiz yuqori bosqichga ko'tarilganligidan dalolat berib turibdi. Vokal janri bo'yicha muvaffaqiyatlarimizning o'zi ham har qancha tahsinga sazovordir.

Vokal janri aslida professional san'atni oziqlantirib turadigan hayotbaxsh manbalardan biridir. Shuning uchun ham vokal janri san'ati yuksak darajaga

ko'tarilgan joyda professional san'at kadrlari ham ko'p yetishib chiqqan bo'ladi. Chunki vokal janri o'zining eng yaxshi vakillarini professional san'atga uzatib, uning safini boyitib turadi. Vokal janri professional san'at talantlarining sarchashmasi, aniqrog'i buyuk san'at dargohiga olib o'tadigan o'ziga xos bir ko'prikdir.

Vokal janri yillar o'tishi bilan har jihatdan o'sadi va takomillashadi. Ayniqsa ikkinchi jahon urishidan keyingi yillarda ancha rivoj topdi. Vokal janrining tuman, viloyat, respublika miqyosidagi ko'rik va tanlovlari o'tkazilib kelinayotgan estetik tarbiya sohasidagi ishlarning anchagina jo'nashib ketishiga amaliy yordam berdi. Oqibatda xalq orasida ancha-muncha xushovoz xonandalar borligi aniqlandi, ularning ko'rik va tanlovlarda chiqishlari yaxshi baholandi.

O'quvchilarning estetik, g'oyaviy-badiiy tarbiyasining muvaffaqiyat bilan amalga oshirilishi, zamonamizning har jihatdan yetuk, ta'bi nozik, go'zallikning qadriga yetadigan estetik didli kishilar bo'lib yetishishlarida vokal to'garakalri va vokal ijrochiligi darslari ko'p ishlarni bajaradi. Chunki talaba musiqa guruhiga kirgandan keyin undagi iste'dod kurtaklari bo'rta boshlaydi. Vokal o'qituvchilari talabadagi ishtiyoq nimaga moyilligini aniqlab, uni muayyan to'garakka jalb etadilar. Bu esa talaba iste'dodining to'g'ri yo'lga tushib olishini ta'minlaydi. Xullas, respublikamizda san'atning barcha janrlari singari vokal janri bo'yicha munosib kadrlar yetishib chiqib, o'zbek san'ati dovrug'ini jahonga taratmoqdalar.

3. Xonandalar ovozi va ularning ta'rifi

Vokal ijrochisi yuksak ijrochilik sifatlariga ega bo'lishi zarur. Ijrochilar ovozining xususiyatlarini yaxshi bilish musiqa rahbari uchun muvaffaqiyat garovidir. Ijrochi (vokalist) ovozi fiziologik tuzilishiga qarab bolalar, ayollar, erkaklar ovoziga bo'linadi.

Bolalar ovozida tovush o'zining yengilligi, tiniqligi, yoqimli jarangdorligi va nozikligi bilan ajralib turadi. Bolalar ovoziga ikkiga: diskant va altga bo'linadi. Diskant bolalarning baland ovozi bo'lib, diapazoni ya'ni hajmi birinchi oktava do tovushidan ikkinchi oktava sol tovushigachadir.



Alt bolalarning past ovozi bo‘lib, diapazoni kichik oktava lya tovushidan ikkinchi oktava mi tovushiga qadardir.



Bolalarning ovoz xususiyatlarini aniqlashda har bir yoshning o‘z xususiyatiga ega bo‘lgan ishchan diapazoni (primar zonasi) borligini, ya’ni eng qulay va ko‘p ishlatiladigan tovushlar borligini hisobga olish zarur. Bu repertuar tanlashda va bolalar ovozini to‘g‘ri tarbiyalashda katta yordam beradi.


7-10 yoshli bolalarning ovoz diapazoni ancha keng bo‘lib, u kichik oktava lya dan ikkinchi oktava re gacha bo‘lgan bo‘lgan oraliqni tashkil etadi.

11-13 yoshda bolalarning ishchan diapazoni kengaygan bo‘lib, birinchi oktava do dan ikkinchi oktava mi gacha (hatto fa ga qadar) boradi. Ayniqsa o‘g‘il bolalar ovozi 11 yoshlarga borib to‘liqroq sadolanadi va tembr jihatidan aniqlikka erishadi: diskantlarda sezilarli yorqin, tiniq sado, altlarda esa bo‘rttirilgan va teran sado paydo bo‘ladi.


Mutatsiya davrida o‘g‘il bolalarda ovoz ko‘lami chegarasi keskin o‘zgaradi, ovoz bo‘g‘iq, intonatsiyasi noaniq, tez charchaydigan bo‘ladi. Bu mutatsiya jarayonining qanday o‘tishi bilan bog‘liqdir.

17-18 yoshlarga kelib ovoz kuchi kattalar ovozi kuchiga yaqinlashadi va 20 yoshlarga borib to‘liq shakllanadi.

Ayollar ovozida koloraturali va lirik – koloraturali sapranolar eng yengil va harakatchan ovozlar bo‘lib, yuqori registrlardagi tovushlarning tiniq, jarangdor va yorqinlik xususiyatiga egadir. Texnik imkoniyatlari va tembr jihatidan fleyta ovoziga yaqin bo‘lib, o‘ta yorqin tebranadi. Koloraturali va lirik – koloraturali soprano asosan yakka xonandalikda – opera partiyalari, romans va lirik qo‘shiqlar ijrosida ishlatiladi. Ovoz hajmi birinchi oktava do dan uchinchi oktavadagi fa (goho sol) ga qadardir.




Lirik – koloraturali soprano iliq, yoqimli tembrga ega bo‘lib, yumshoq sadolanadi. O‘rta va yuqori registrlarda ta’sirchan ifodali tovushlarga ega. Uchinchi oktava do tovushigacha.



Lirik – dramatik va dramatik soprano ovoz hajmi to‘liq, bo‘rttirilgan, kuchli sadosi bilan ajralib turadi. Diapazoni kichik oktava si, asosan, birinchi oktava do tovushidan ikkinchi oktava lya gacha.




Lirik va dramatik metsso – soprano dramatik soprano va kontralto o‘rtasidagi ovoz bo‘lib, past (ko‘krak) registrdagi tovushlarga ega. Tembr jihatdan tiniq va chiroyli hisoblanadi. Shuningdek lirik metsso – soprano ovozi mayin va harakatchan yuqori registrlarga ham ega. Lirik va dramatik metsso – soprano ovozlarning diapazoni kichik oktava lya tovushidan ikkinchi oktava fa ga (o‘tkinchi tovush sifatida ikkinchi oktava sol tovushiga) qadar bo‘ladi.



Kontralto ayollarning eng past ovozi bo‘lib, quyuq tembrga ega, asosan past (ko‘krak) registrdan iborat kontralto juda ham noyob ovoz bo‘lib, undan kam hollarda qo‘llaniladi. Diapazoni kichik oktava fa tovushidan ikkinch oktava mi tovushgachadir.



Erkaklarda tenor altino erkaklarning eng baland ovozi bo‘lib, yengil va nozik tembrga ega. Yorqin falsetli sadolanishi uning o‘ziga xos xususiyatidir. Lirik tenor yengil, ravshan, nafis tembrga ega va o‘ta ifodaviyligi, texnik jihatdan harakatchanligi bilan ajralib turadi. Diapazoni birinchi oktava do tovushdan uchinchi oktava do tovushigachadir.



Lirik – dramatik va dramatik tenor kuchli, to‘liq va shirali ovozlar hisoblanib, past registrda to‘la va aniq sadolanadi. Uning diapazoni birinchi oktava do tovushidan ikkinchi oktava lya tovushigachadir.



Xarakterli tenor opera amaliyotida uchraydi. Bu ovozga “chuqur ta’sirchan” xarakterli elementlarga ega kichik partiyalar topshiriladi.

Lirik bariton tenor va bas ovozlari o‘rtasidagi ovoz bo‘lib, kuychan, ohangdorligi va yumshoqligi bilan ajralib turadi. Sadolanish bo‘yicha tenorga yaqin turadi. Rivojlangan va yorqin yuqori registrga ega. Diapazoni katta oktava lya tovushidagi birinchi oktava sol tovushiga qadardir.



Dramatik bariton sadolanishi jihatidan bas ovoziga yaqin turadi. Unda kuchli jarangdorlik va ijrokorlik mujassam. Diapazoni lirik baritondagidek, pastki registri yanada ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Ovoz hajmi katta oktava sol tovushidan birinchi oktavadagi fa tovushigachadir.



Bas bariton yoki bas – kantanto – baland, kuychan bas. Uning past tovushlari kuchsiz, yuqori tovushlari esa erkin va shirali eshitiladi. Diapazoni katta oktava sol tovushidan birinchi oktava fa tovushigacha qadar.



Bas – profundo – “chuqur” bas past registrda to‘liq va past sadolanadi. Hozirgi vaqtda bu ovoz deyarli uchramaydi. Diapazoni kontroktavadagi lya tovushidan birinchi oktava do tovushigacha




Erkaklarning eng past ovozi oktavachilar hisoblanib, II bas partiya turkumiga kiradi. Odatda oktavachilar 2-3 kishidan iborat guruhni tashkil etadi.

Oktavachilarning bas partiyasi diapazonini bir oktava pastga kengaytirish imkonini beradi. Bas oktavachilar asosan, (a cappella) jo'rsiz xor uchun yozilgan asarlarda ishlatiladi. Bu ovoz asar sadosiga teranlik va to'laqonlik baxsh etadi. Ko'pincha bu ovozlari quyidagi hajmda ishlatiladi:



Markaziy bas – bas-profundo va bas kantata orasidagi ovoz. Eng jarangdor, kuchli qismi uning markazi bo'lganligi uchun nomi shunday atalgan. Ishchan diapazoni katta oktava sol dan birinchi oktava do gacha bo'lib, yaxshi va shirali eshtiladi. To'liq ovoz hajmi esa katta oktava mi tovushida birinchi oktava mi gacha boradi.



Bas – buffo yoki xarakterli bas – maxsus ovoz turi bo'lib, diapazoni kuchli, ta'sirchan va ifodaligi bilan ajralib turadi. Basning bu turi yuqorida ta'riflab o'tilgan bas ovozlarning har biriga taalluqli bo'lishi mumkin. Odamda uchraydigan bu ovoz turini komik (buff) bas deb ham atashadi.

4. Talabalar ovozini tarbiyalash

Musiqqa san'at orqali yosh avlodni ma'naviy tarbiyasiga g'amxo'rlik qilish, kamolot sari yetaklash, milliy g'oyani singdirish va tafakkurni kengaytirish borasida xilma-xil ko'rik-tanlovlari o'tkazilmoqda. Bu ko'riklar esa o'z navbatida yangi-yangi ijrochi xonandalarni kashf etayotir.

Kuylash nazariyasi bo'yicha adabiyotlar talaygina, biroq bu vokal ishi amaliyotiga kam ta'sir etadi: qo'shiqchilik hayoti undan deyarli xoli, o'z yo'lidan kechadi.

Kuylash tajribasi, asosan, pedagoglar, vokal ishi ustalari tajribasini og'zaki bayon etishdan foydalanadi. Qo'shiqchi va uning ovozini tarbiyalash bo'yicha aktyor bilan ishlash metodiga o'xshash qandaydir umumiy metod yaratilmagan, kuylash ustalaridan o'z amaliy faoliyatini nazariy jihatdan chuqur anglashni talab qilish qiyin.

Na hofiz, na yozuvchi, na cholg'uchi, na mo'yqalam sohibidan iste'dodli va ulkan tajribasi bo'lsa ham nazariya yaratishni talab qilib bo'lmaydi.

Shu holat qo'shiqchilar tayyorlashning yagona metodini ishlab chiqishning maqsadga muvofiqligi haqidagi fikrlarni keltirib chiqaradi.

Biroq bu kabi metodni yaratish vokalchilardan yuksak uyushqoqlik talab etiladi. Vokal o'qituvchilari kuylash paytida ovoz apparati ishi haqidagi batafsil tekshirilgan ilmiy ma'lumotlarga asoslangan ilmiy xulosalarga kelgandagina yagona metod ishlab chiqilishi va vokal amaliyotiga tatbiq etilishi mumkin.

Kuylashga o'rgatishning foydali, demakki, hamma maqbul metodi eng yaxshi vokal pedagoglari va yetuk ijrochilar tajribasi va amaliyotida chuqur, har tomonlama umumlashtirish natijasidagina yaratilishi mumkin. Bunday umumlashtirish fan ma'lumotlariga tayanishi lozim. Bugungi kunda na ilm, na pedagoglarga ajoyib musiqiy eshitish qobiliyati mavjudligi o'quvchiga ovozning yaxshi yo yomon chiqishi obyektiv sabablarini tushunish imkoniyatini bera oladi. Ustiga-ustak pedagog va o'qituvchining subyektiv tuyg'ulari ko'pincha mos kelmaydi. Ovoz (tovush) bo'lishidagi tuyg'ularini so'z bilan ifodalash esa o'ta mushkul. Zamonaviy vokal terminologiyasi ham ba'zida talabaga yordam berishdan ko'proq, uni chalg'itadi. Kerakli ovozni chiqishini ko'rsatish chog'ida o'z tuyg'ularini sharhlab, pedagog talabalarga o'xshash tuyg'ularni uyg'otmoqchi bo'ladi. Biroq ko'pchilikdagi ohangni ko'rsatayotib, pedagog, odamda, bu tovush (ovoz) o'qituvchiga aytayotgan tuyg'u va texnik usullar natijasida yuzaga kelganiga ishonadi. Aslida esa tuyg'ular juda aldamchi va individual, talabada bu boshqacha bo'lishi mumkin.

O'z texnik usullari va tuyg'ularini berish jarayonida pedagog ko'proq og'zaki tushuntiradi. Bu tushuntirishlar ko'pincha obrazli ifodalar bo'lib, kuylovchi ovozning yaxshi tarangini yoki bu tarangning turli sifatlarini xarakterlaydi. Talaba esa bu obrazli ifodalarni o'z mushak tuyg'ulari (hislari)ga "tarjima qilishi"ga to'g'ri keladi. Hamma vaqt ham talaba bu "tarjima"ni eplay olmaydi.

Kuylash chog'ida ovoz apparati ishi haqida u qadar to'g'ri bo'lmagan tasavvurga asoslangan ta'lim metodlari ba'zida pedagogning amaliy tajribasi hisobiga yaxshi natija berishini inkor etib bo'lmaydi. Biroq bu ko'rsatkich past.

Bu metodlar muvaffaqiyatini, aftidan, ayrim qo‘shiqchilarning o‘z ustozlari ishlatgan mushak usulidan nusxa olish yoki o‘z tasavvuridagi ovozning chiroyli chiqishi idealining intuitiv amalga oshira olish qobiliyati bilan izohlash mumkin. Pedagogik ovozning yaxshi jarangidan nusxa olib, ko‘shiqchi, xatto kuylash jarayonini noto‘g‘ri sharhlaganda ham o‘zining vokal idealiga mos ovozni ta‘minlaydigan mushak ko‘nikmalarini hosil qiladi.

Musiqiy tarbiyaning muhim vazifalarini amalga oshirishda, yosh avlodni yuksak musiqiy – estetik didini shakllantirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, ijro mahoratini yuzaga keltirishda vokal o‘qituvchisi alohida ahamiyat kasb etuvchi shaxs hisoblanadi.

O‘qituvchi zimmasiga yuklanadigan bunday mas‘uliyatni hisobga olgan holda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari, bakalavr talabalarning professional uquvini takomillashtirib borish, xususan ularning kuylash mahoratini o‘stirib borish hayotiy zarurat ekanligini anglab olish muhimdir.

Oliy musiqiy ta‘lim dargohida bo‘lajak bakalavrlarni kasbga tayyorlar ekan, ularning kuylashga o‘rgatuvchi yakka xananda, vokal o‘qituvchisi talabalarning har birini ertaga izlab o‘quvchilarga vokal sirlarini o‘rgatuvchi ustoz sifatida tasavvur qilish, uni kuylash san‘atining eng muhim sirlari bilan qurollantirishlari lozim.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi, ya‘ni talabaning ovozi qanday bo‘lishi kerak? – degan savol tug‘ilishi o‘z-o‘zidan tabiiydir.

Talabaning ovoziga qo‘yiladigan birinchi navbatdagi talablar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O‘qituvchi – talaba faqat texnikasini egallabgina qolmay, uning ovozi yoqimtoy va o‘quvchilarni o‘ziga tortadigan bo‘lishi.
2. Talaba biron cholg‘u sozida (fortepiano, rubob, dutor va hokazoda) o‘z-o‘ziga jo‘r bo‘lib kuylay olishi.
3. Cholg‘u sozisiz ham chiroyli, yoqimli tembrda kuylay olishi.
4. O‘z ovoz diapazonining barcha registrlarida (o‘rta, past va yuqori) birday o‘z ovoz tembirini yo‘qotmasdan kuylay olishi.
5. Hirgoyi qilib yoki falset ovozda kuylay olishi.

6. Kuylaganda intervallarni to'g'ri talaffuz qilib kuylay olishi.

7. Xalq qo'shiqlarida turli qochirimlarni, bezaklarni mahorat bilan qo'llay olishi.

8. Turli dinamik tuslarda kuylay mahoratiga ega bo'lishi.

9. O'quvchilar bilan muloqotda o'z ovoz tonini to'g'ri tanlay olish lozim.

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar talabning kuylash texnikasini qay darajada mukammal egallaganligini ko'rsatadi. Xilma-xil vokal malakalariga talaba, birinchi navbatda professional o'qituvchilardan ta'lim olish jarayonida erishadilar. Xususan, vokal, mumtoz qo'shiqchilik, xor va xalq qo'shiqchiligi darslaridan puxta bilim olgan talabalar soatlab cho'chimasdan kuylash malakalarini, ya'ni chidamlilikni ham o'rganib boradilar.

Vokal mutaxassisleri talabalarda professionallik malakalarining rivojlanishida uch davr mavjudligini ta'kidlashadi.

Birinchi davr – to'g'ri ovoz hosil qilish malakalarining dastlabki shakllanish davri bo'lib, talaba ovoz hosil qilishni endigina bilib olgan davr hisoblanadi.

Ikkinchi davr – kuylashning hosil bo'lgan to'g'ri yo'lini saqlab qolish, uni ovoz diapazonining barcha registrlariga joriy etish, ayrim yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni to'g'rilab borish va egallagan dastlabki malakani mustaxkamlash.

Uchinchi davr – ovoz hosil qilishning endigina shakllangan malakalarini avtomat darajasiga yetkazish, kamchiliklarni tamoman bartaraf qilish, ovoz hosil qilish apparatlarini ishga solishning xilma-xil variantlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Mumtoz qo'shiqchilik bilan shug'ullanayotgan talabalar uchun, ayniqsa, uchinchi davrda qilinadigan ishlar ko'payadi. Ashulachilikka xos milliy bezaklarni qo'llay olishi: nola, qochirim, ovozni yoyish, tebrantirish, tovlantirish, salmoqlab me'yoriga yetkazish kabi murakkab bezaklardan foydalanishning yangi-yangi variantlaridan foydalanish yo'llarini izlash yo'lidagi yangi harakatlar, xonandaning o'z mustaqil uslubini yaratishga ham olib kelishi mumkin.

O'z ustida ishlashni to'xtatgan hofiz, ashulachi o'sishdan ham to'xtaydi. Vokal yoki mumtoz ashulachining o'zi ham o'z ovozini tarbiyalash ustida tinimsiz ish olib borishi talab etiladi.

Shu o'rinda mashhur ashulachi Shalyapinning qo'shiqchilikka xos muhim bashoratini eslatib o'tish o'rinlidir.

Uning fikricha, har bir ashulachi o'z ichini ikki kishiga bo'lgandek his qilishi lozim. Birinchi ashulachi sifatida u professional darajada kuylasa, ikkinchi ashulachi sifatida u o'z ijrosini muntazam nazorat qilib borishi, o'zining yutuq va kamchiliklarini belgilab, uni tuzatish yo'llarini o'ylab borishi lozim. Bu esa, kuylovchiga yanada kattaroq mas'uliyat yuklaydi.

5. Vokal qo'shiqchiligida nafas olish organlarining ahamiyati

Odam va har bir boshqa tirik organizm tashqi muhitdan kislorod qabul qilib, karbonat angidrid gazini chiqarib turishi nafas olish deyiladi. Nafas olish har bir tirik organizmning hayoti uchun eng zarur fiziologik jarayon hisoblanadi.

Nafas olish jarayoni quyidagi qismlardan iborat:

1. O'pka to'qimalari va tashqi muhit o'rtasida kislorod va karbonat angidrid almashinuvi (tashqi nafas olish).
2. O'pka to'qimalari va o'pkaning kapilyar qon tomirlari o'rtasida kislorod va karbonat angidrid almashinuvi.
3. Qon va to'qimalar o'rtasida kislorod va karbonat angidrid almashinuvi (ichki nafas olish).

Nafas olish orqali tashqi muhitdan qabul qilingan kislorod ishtirokida hujayra va to'qimalarda oqsil, yog' va uglevodlar oksidlanib, energiya hosil qiladi. Hujayra va to'qimalardagi barcha hayotiy jarayonlar (qo'zg'alish, harakatlanish, ko'payishi) ana shu energiya hisobiga amalga oshadi. Bu hayotiy jarayonlar natijasida hosil bo'lgan karbonat angidrid gazi hujayra va to'qimalardan qonga o'tib, o'pkalar orqali tashqi muhitga chiqariladi.

Nafas olish organlariga – burun bo'shlig'i, hiqildoq, traxeya, bronxlar, o'pkalar va plevra pardalari kiradi.

Burun bo'shlig'i. Burun bo'shlig'i yuqori, pastki va ikkita yon devordan tashkil topgan. Burun bo'shlig'i o'rtasidan ikkiga bo'lingan. Uning ichki yuzasi shilimshiq parda bilan qoplangan. Bu pardada juda ko'p mayda bezchalar bo'lib,

ulardan shilimshiq suyuqlik ajraladi. Shilliq parda mayda qon tomirlari va asab tolalariga boy. Burun bo'shlig'ining oldingi qismida mayda tukchalar bo'ladi. Ular nafas olinadigan havo tarkibidagi chang zarrachalarini tutib qolib, organizmni himoya qilish vazifasini bajaradi.

Nafas olganda tashqi muhitdan kirgan havo burun bo'shlig'i orqali o'tganda iliydi, namlanadi va chang zarrachalaridan tozalanadi. Shundan keyin bu havo halqum orqali hiqildoqqa o'tadi.

Hiqildoq. Hiqildoq IV-VI bo'yin umurtqalari ro'parasida joylashgan. U old tomonidan til osti suyagi muskullari va teri, yon tomondan qon tomirlari va asab tolalari hamda qalqonsimon bez bilan chegaralangan.

Hiqildoq havo o'tkazuvchi nafas yo'li vazifasini bajarishdan tashqari, u tovush hosil qiladigan **ovoz apparati** hamdir. Uning ichki qavati tuksimon shilimshiq pardadan iborat, devori esa tog'ay va muskullardan tashkil topgan. Ichki qavatining o'rtasida **tovush boylamlari** va **muskullari** joylashgan bo'lib, ularning harakati, qisqarishi va bo'shshishi natijasida ovoz teshiklari ochilishi yoki yopilishi orqali tovush hosil bo'ladi.

Hiqildoq uzuksimon, halqasimon, hiqildoq usti kabi uchta yirik tog'aydan va uch juft mayda tog'aydan tashkil topgan. Hiqildoqda uch guruh muskullar bo'lib, ularning bir guruhi tovush teshigini kengaytiradi, ikkinchi guruhi toraytiradi, uchinchi guruhi tovush boylamlarini taranglashtiradi. Hiqildoqdan havo uning pastki qismiga tutashgan nafas qismiga yani traxeyaga o'tadi.

Traxeya va bronxlar. Traxeya hiqildoqning pastki qismidan yani VI-VII bo'yin umurtqalari ro'parasidan boshlanib, V ko'krak umurtqasi ro'parasigacha davom etadi va shu joyda o'ng va chap bronxlarga bo'linadi. Uning uzunligi odamning bo'yiga qarab, 9 – 13 sm. gacha o'sadi.

Traxeyaning devori 16-20 ta aylanasimon tog'aylar va paylardan tashkil topgan. Aylanasimon tog'aylarning orqa qismi silliq muskulardan ibrat. Traxeyaning ichki qavati tuksimon shilliq pardadan tashkil topgan bo'lib, unda mayda bezchalar joylashgan. Ulardan ajralgan suyuqlik havoni namlab o'tkazadi. Tuksimon shilliq parda esa havodagi chang zarrachalarni ushlab qolib, tashqariga chiqarib yuboradi.

Bronxlar V ko'krak umurtqasi ro'parasida traxeyaning ikkiga (o'ng va chap bronxlarga) bo'linishdan hosil bo'ladi. Bronxlar o'pka to'qimasirga kirib, xuddi daraxt shoxiga o'xshab juda ko'p mayda bronxchalarga tarmoqlanadi va bora-bora alveola pufakchalarini hosil qiladi.

Traxeya va bronxlar nafas yo'li hisoblanib, ular havoni ilitib namlab, mayda chang zarrachalaridan tozalab, o'pka alveolariga o'tkazadi.

O'pka. O'pka bir juft bo'lib (o'ng va chap o'pka), konussimon tuzilgan. Ular ko'krak qafasining ikki tomonida joylashgan. O'ng va chap o'pkaning o'rtasida traxeya, qizilo'ngach, qon tomirlari, ayrisimon bez, asab tolalari, limfa tomirlari va tugunlari hamda yurak joylashgan. O'ng o'pka chap o'pkadan kattaroq bo'lib, u yuqorigi, o'rta va pastki bo'laklardan iborat. Chap o'pka esa yuqorigi va pastki bo'lakdan tashkil topgan. O'pkalar pastki tomondan diafragma, orqa tomondan umurtqa pog'onasi, oldingi tomondan to'sh suyagi va atrof tomondan qovurg'alar bilan chegaralangan.

O'pka to'qimasi daraxtsimon shakldagi o'rtacha, mayda va eng mayda bronxchalardan hamda pufakchasimon alveolalardan tashkil topganligi tufayli u g'ovaksimon tuzilgan bo'ladi.

O'pkaning nafas olish va chiqarish vazifasini asosan alveolar bajaradi. Ularning devori bir qavatli epiteliy to'qimasidan iborat bo'lib, atrofi mayda qon tomirchalari – kapillyarlar bilan to'rsimon shaklda o'ralgan. Alveolalarning soni ikkala o'pkada 750 million atrofida bo'ladi. Alveolalarning umumiy satxi 100 m² ni tashkil etadi. Ular yuzasining bunday katta sathga ega bo'lishi o'pka bilan tashqi muhit o'rtasida hamda alveolalar bilan qon o'rtasida gazlar almashinuvi tezlashuvini ta'minlaydi.

O'pkalar tashqi tomondan **plevra pardasi** bilan o'ralgan. U ikki qavatdan (ichki va tashqi qavatdan) iborat bo'lib, ular orasida torgina plevra bo'shlig'i hosil bo'ladi.

Plevra bo'shlig'i ichidagi bosim atmosfera bosimiga nisbatan kam, ya'ni manfiy bo'ladi. Bu esa nafas olgan paytda o'pka to'qimasining kengayishiga va

undagi alveolalar havo kirishiga, nafas chiqarganda esa torayib, alveolalardagi havoni qisib chiqarishga imkon beradi.

O'pkalar katta qon aylanishi doirasidan kelgan bronxial arteriya tomiri orqali oziqlanadi. Kichik qon aylanish doirasining tomirlari, ya'ni o'pka arteriyalari va o'pka venalari o'pka to'qimasini oziqlantirishda ishtirok etmaydi. Bu tomirlardagi qon o'pka alveolariga o'zidagi karbonat angidridni berib, ulardan kislorod qabul qiladi, ya'ni venoz qon arterial qonga aylanadi.

Musiqalarida o'quvchi kuylash vaqtida, tovush hosil qilishda nafasni to'g'ri yo'lga qo'yishi muhim rol o'ynaydi.

Kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas orasida ma'lum darajada farq bor. Fiziologik nafasda nafas olish aniq bir ritmda va ma'lum bir vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Kuylash vaqtidagi havo olish tez, qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'lib nafas chiqarish esa bir qancha vaqtga cho'ziladi. Nafas ritmi ijro etilayotgan asar xarakteriga qarab o'zgarib turadi. Kuylashda fiziologik nafasga qaraganda chuqur nafas olinadi.

Kuylashdagi nafas olishning bir necha turlari bor:

- 1) pastki qovurg'alar kengayuvchi nafas olish;
- 2) yelka kengayuvchi nafas olish;
- 3) qorin bilan nafas olish (diafragma pastga tushadi);
- 4) ko'krak bilan nafas olish (ko'krak qafasining yuqori qismi ko'tariladi).

Nafas harakatlari nafas olish va nafas chiqarishdan iborat. Nafas olish harakati qovurg'alarning ko'tarilishi va diafragmaning pastga tushishi orqali ta'minlanadi. Qovurg'alarning ko'tarilishi bo'yin va tashqi qovurg'alararo muskullarning qisqarishi natijasida yuzaga keladi. Diafragmaning pastga tushishi esa uning muskullari qisqarishi natijasida sodir bo'ladi. Bu harakatlar natijasida ko'krak qafasining hajmi kattalashadi, o'pkalar kengayadi va tashqi muhitdan o'pkalarga havo so'rib olinadi.

Qovurg'alararo muskullarning faol ishtirok etishi bilan nafas olishga ko'krak bilan nafas olish deyiladi. Diafragmaning ko'proq harakatlanishi orqali nafas olishga qorin bilan nafas olish deyiladi. Erkaklarda asosan qorin bilan nafas olish, ayollarda esa asosan ko'krak bilan nafas olish harakatlari rivojlangan. Nafas olish

harakatlarining ko'krak yoki qorinli bajarilishi odamning holatiga, bajarilayotgan ishiga ham bog'liq.

Kuylash vaqtida nafas olishning pastki qovurg'alar kengayuvchi nafas olish va qorin bilan nafas olish turlarini ishlatish ma'quldir.

Diafragma odam organizmida ko'krak va qorin bo'shlig'ini ajratib turadi. Pastki qovurg'alar va diafragmalar vositasida nafas olishda nafas olish va chiqarish diafragma orqali tartibga solinadi. Bu shunday sodir bo'ladi: o'quvchi xuddi gul "hidlagandek" nafas oladi. Bunda o'pkalar kengayib, pastki qovurg'alarni tashqi tomon suradi va diafragma pasayadi, natijada, qorinning devori oldinga shishib chiqadi. Elka va ko'krakning yuqori qismi bu holda o'zgarmaydi. Nafas olish chuqur, to'liq va eng asosiysi, shovqinsiz bo'lishi kerak. Nafas chiqarish tejamli, uzoq muddatli, tekis bo'lishi shart. Nafas chiqarish qorin tarang qobig'ining qarish tarang qobig'inig harakati bilan boshqarilib havo yuqoriga yo'naladi va ovoz pardalarini tebranishga undaydi. Pastki qovurg'alar va diafragma asta sekin o'z holatiga qaytadi.

Nafas olish organlarining har bir qismi ichki yuzasini qoplab turuvchi shilliq parda tashqi ob-havo sharoitining o'zgarishi, havo tarkibidagi chang zarrachalari, baqirib qo'shiq aytish bolalar yoshiga va ovoz diapazoniga mos bo'lmagan asarlarni tanlash, uzoq vaqt to'xtovsiz kuylatish, ovoz apparatining kasalligida kuylatish natija va ta'sirida yallig'lanishi mumkin. Nafas olish organlarining ayrim qismlari, ya'ni burun, tomoq, hiqildoq, traxeya, bronxlar va o'pkalarning har biri alohida yallig'lanishi yoki ularning hammasi bir vaqtda yallig'lanishi mumkin. Shunga ko'ra yuzaga keladigan kasallik belgilari turlicha bo'ladi.

Nafas olish orqali odam organizmi barcha hujayra va to'qimalarning kislorodga bo'lgan ehtiyoji ta'minlanadi. Organizmning kislorodga ehtiyoji odamning holatida kam, uxlagan vaqtida undan ham kam, jismoniy mashq bajarganda esa ko'payib, tinch holatdagiga nisbatan 5-10 marta oshadi.

Odam turli holatda bo'lishiga qarab nafas olish va chiqarish harakatlari nafasning yuzaki va chuqur bo'lishi avtomatik holda o'zgarib turadi.

Bolalarni to'g'ri nafas olishga o'rgatish jamoa bo'lib qo'shiq kuylashda vokal ustida ishlashning eng zarur qismidir. Nafas olish jamoa bo'lib kuylashda bir vaqtda

sodir bo'lishi mumkin bu holda guruhdagi talabalar baravariga nafas olishlari kerak. Agar musiqa asarlarida uzoq davom etuvchi kuy jumalari bo'lsa ovoz yoki ovoz pardalarini uzluksiz sadolanishini ta'minlab beruvchi ulama nafas qo'llaniladi. Bu holda bolalar navbatma – navbat nafas oladilar. Aks holda ansambl birligi buzilishi mumkin.

6. Ovoz apparatining tuzilishi

Asosiy ovoz apparati hiqildoqda joylashgan bo'ladi. Hiqildoqda joylashgan ovoz boylamlari, muskullari bilan birga, ovoz hosil bo'lishida til, lablar, og'iz bo'shlig'i, burun bo'shlig'i va uning yuz, peshona suyaklari orasida joylashgan qo'shimcha kovaklari, halqum, traxeya, bronxlar va o'pkalar ham ishtirok etadi.

Odam gapirmay turganda hiqildoqda joylashgan ovoz boylamlarining teshigi ochiq holda bo'ladi (u uchburchak shaklda). Pichirlab so'zlaganda ham ovoz teshigi ochilgan holda bo'ladi. So'zlaganda, kuylaganda ovoz teshiklari yopiladi va o'pkadan nafas bilan chiqariladigan havo katta kuch bilan ovoz boylamlariga ta'sir qilib, ularning tebranishi natijasida ovoz hosil bo'ladi.

Tovush hosil bo'lishi ovoz apparatining harakati natijasida sodir bo'ladi. Bu apparat uch qismdan iborat: 1) nafas organlari (o'pka, bronx, traxeya – tomoqning nafas yo'li); 2) hiqildoq (ovoz pardalari joylashgan qism); 3) rezanatorlar (yutqin, og'iz va burun).

Ovoz apparatining har bir qismi bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Tovush quyidagicha hosil bo'ladi: o'pkadan chiqayotgan havo oqimi bronx, traxeya orqali tomoqqa keladi va u yerda ovoz pardalari to'sig'iga uchraydi. Havo bosimi tasirida ovoz pardalari harakatga kiradi, ularning takroriy ochilib yopilishi va tebranishi natijasida havo to'lqinlari – tovush hosil bo'ladi.

Tovush hosil qilish bilan bog'liq bo'lmagan holdagi odatdagi nafas olish jarayonida ovoz pardalari sokin holatda bo'lib, havo uchburchak shaklidagi ovoz teshigidan erkin o'tadi. Tovush hosil bo'lishida ovoz teshigi torayadi. Tovush baland pardalarga ko'tarilgan sari ovoz teshigi torayib boradi va eng yuqori parda tovushlariga etganda teshik berkiladi.

Ovoz boylamlari o'pkadan chiqariladigan havo ta'sirida bir sekunda 80 martadan 10 ming martagacha tebranishi mumkin. Tebranish qancha ko'p bo'lsa, ovoz shuncha kuchli bo'ladi.

Ovozning o'tkirligi ovoz boylamlarining kalta yoki uzun bo'lishiga bog'liq. Ayollarda (qizlarda) ularning uzunligi o'rtacha 18-20, erkaklarda 20-22 mm. bo'ladi. Shuning uchun ayollarning ovozi o'tkir bo'ladi. Bundan tashqari, ovozning kuchi hamma odamda bir xil bo'lmaydi. Qo'shiqchilarda ovozning kuchi boshqalarnikiga nisbatan ancha katta bo'ladi.

Ba'zi qo'shiqchilar kuylaganda, shipga ilingan qandilning tebratib yuborganligi tarixda ma'lum. Maxsus tayyorgarliklardan o'tgan qo'shiqchilar xuddi tanbur yoki dutor simining turli joylaridan har xil ovoz chiqqanidek, ovoz boylamlarining turli qismlaridan har xil ovoz chiqarish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Har bir kishining ovozi o'ziga xos xususiyatga ega. Hatto chaqaloqning yig'alaginidagi ovozi ham o'ziga xos ohangga, xususiyatga ega bo'ladi va shu orqali ona o'z bolasining ovozini boshqa chaqaloqlar ovozidan farq qiladi. Albatta, hayot davomida odamning turli yosh davrlarida ovoz ma'lum darajada o'zgaradi. Ayniqsa o'smirlarda (13-16 yoshda) ovozning o'zgarishi juda sezilarli darajada bo'ladi. Chunki shu yoshda hiqildoq va ovoz boylamlarining uzunligi o'g'il bolalarda ikki, qizlarda bir yarim barobar ortadi. Buning natijasida, ayniqsa, o'smir yoshdagi o'g'il bolalarda ovoz qo'pollashib, do'rillab qoladi. Bundan xavotirlanmaslik kerak. Bu fiziologik xususiyatga ega bo'lib, o'smirlik davri o'tgandan keyin ovoz me'yoriy holga keladi. Lekin o'smirlik davrida ba'zi gigena qoidalariga amal qilish zarur, ya'ni qattiq gapirmaslik, baqirmaslik, kuchli ovoz bilan ashula aytmaslik, shamollashdan saqlanish, achchiq taomlarga ruju qilmaslik kerak va hokazo.

Ba'zilarning fikricha, yosh bola qancha va ko'p yig'lasa, go'yo uning ovoz apparati shuncha yaxshi rivojlanar emish. Bu noto'g'ri, chunki ko'p vaqt qattiq yig'lagan bola ovoz boylamlarining zo'riqishi natijasida ularda mayda pufakchalar hosil bo'ladi. Buning oqibatida bolaning ovozi qo'pol va xirillagan bo'lib qolishi mumkin. Shuning uchun yosh bolani qattiq va uzoq yig'latmaslik lozim, ya'ni uni tezda ovutish kerak.

Tovush tebranishining tezligi, ya'ni tovush balandligi ovoz pardalarining tortilishi (taranglashish) darajasi bilan bog'liq; tebranish qancha tez bo'lsa, tovush shuncha yuqori pardalarga ko'tariladi. Biroq pardalar hosil qiladigan tovush kuchli emas, u, asosan, yuqoriga rezonatorlardan (ovozni kuchaytiradigan apparatlardan) bo'g'izning kengayishi hisobiga kuchayadi. Og'iz va burun ham shuncha yordam beradi, shuningdek, ular tovush rangi (jilvadorligi) – tembrini yuzaga keltirishda ham katta rol o'ynaydi.

Rezonatorlar yuqorigi va pastki qismlardan iborat bo'lib, ular ovoz pardalarining yuqorisi va ostida joylashadi. Yuqorigi ovoz – rezonatorlariga yutqin, og'iz va burun bo'shliqlari, pastki (ko'krak qismi) ovoz rezonatorlariga traxeya va bronx bo'shlig'i kiradi.

Ovoz tembrining sifati tovush o'tuvchi ovoz pardalari tebranishi bilan rezonans bo'shliqlariga bog'liq. Tomoq va ovoz pardalarining harakati mushaklar va tog'aylar tizimining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Mushaklarning ayrimlari qisqarib, pardalarni taranglashtiradi, ayrimlari ularni birlashtiradi va bir-biridan uzoqlashtiradi. Agar ovoz pardalari o'zining butun massasi bilan tebransa, ko'krak registridagi tovush, ovoz pardalari faqat chekkasi bilan tebransa, yuqori registrdagi tovush yuzaga keladi.

7. Musiqa mashg'ulotlarida vokal qo'shiqchiligi malakalarini shakllantirish

Qo'shiq ijrochiligi – birdamlikni, musiqiy tuyg'u va sezgirlikni talab qiladi. Bu esa vokal ijrochilari ijro jarayonida bir-birlarini o'zaro tushunib, sezib turishi bilan bir qatorda, o'qituvchi bilan ham birdam bo'lishlari lozim ekanligini ko'rsatadi. Vokal darsiga jalb qilingan talabalarning qo'shiqni muntazam va o'zaro uyushqoqlik bilan ijro etib turishlari ularni o'zlaridagi ma'naviy boylikni boshqalar bilan baham ko'rishga o'rgatadi. Talabaning yakka holda qo'shiq ijro etishi mas'uliyat hissini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Darsda qo'shiq ijro etilishidan ijrochilar bilan bir qatorda tinglovchilar ham estetik zavqlanishlari lozim. Biroq, bu jarayon yengil ko'chmaydi, aksincha puxta tayyorgarlik va izlashini talab etadi. Qo'shiq ijrochilari

o'z repertuarlaridagi asarning ruhiga chuqur kirib borgan taqdirdagina uning ijrosi go'zal va ifodali chiqishi mumkin. Shuning uchun ham talabalarni qo'shiq ijrosiga emotsional, ijodiy munosabatda bo'lishga, ijroda asardagi g'oyani ifodalashga o'rgatish juda muhimdir. Ijrochilik shundagina chinakamiga estetik tarbiya jarayoniga aylanadi. Bu esa talabalarning ovozlarini o'stirish nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir. Chunki ovoz apparatining umumiy faoliyati qo'shiqqa emotsional munosabatda bo'lgandagina faollashadi.

Talabalarga vokal tarbiya berish jarayoni ko'p qirralidir. Qo'shiqning ifodali badiiy ijrosi talabalardan vokal malakalarini puxta egallashni talab qiladi. Aks holda qo'shiq ijrosi kutilgan natijani bermaydi, ta'sirsiz bo'ladi.

Vokal o'qituvchisi talabaning musiqa sezgisini har taraflama o'stirib borish negizida uning qo'shiqbop ovozini to'g'ri tarbiyalashni unutmasligi kerak. Bu uning birinchi galdagi eng muhim vazifasi hisoblanadi. Vokal o'qituvchisi o'z faoliyatida har bir o'qituvchi talaba bilan individual ish olib borib, ovozlar tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'ysa, uning keyingi ishlari ham yurishib ketaveradi, jamoa oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishiga ham yo'l ochiladi.

Yoshlarning ovoz apparatlari, turgan gapki, ancha mo'rt bo'ladi. Ular har jihatdan o'sib borishlari bilan bir qatorda, bunga mos holda ovoz apparatlari ham o'zgarib boradiki, bu jarayon muntazam va uzluksizdir. Shuning uchun vokal o'qituvchisi dars o'tkazgan paytlarida talabalarning ovozini muhofaza qilish, asrash va to'g'ri o'stirishga ham jiddiy e'tibor qilishi kerak.

Qo'shiq aytish, o'z tabiatiga ko'ra, kompleks jarayon hisoblanadi. Talaba qo'shshiq aytganda uning butun organizmi ishga tushadi. Bunda hammasidan ham organizmning ma'lum bir qismi to'la faol ishlaydi, ya'ni tovush hosil qilishda artikulyasiyaon, nafas, asab-muskul apparat o'zini ko'rsatadi. Ulardan birortasining noto'g'ri ishlashi qo'shiqbop ovoz chiqishi yohud me'yor oqimiga halal yetkazishi mumkin. Shu sababli talabaning ijrochilik malakasini tarbiyalash ishi kompleks tarzda olib borilishi va bunda uzilishiga yo'l qo'yimasligi zarur.

Vokalistlari bilan olib boriladigan ishlardan ikkitasini ko'rsatib o'tamiz va amaliy ishda tavsiya qilamiz:

- 1) har bir vokal ijrochisi bo'lgan talabani foniatrik (loringologik) ko'rikdan o'tkazish;
- 2) har bir talaba ovozi maxsus eshitib ko'rish alohida ahamiyatga ega.

O'qituvchi vokal darsi qatnashchisi ovozi individual eshitib, ko'rikdan o'tkazib turganida, avvalo, undagi musiqa sezgisini qay darajada o'sganligi, ovoz ohangidagi o'zgarishlarga, nafas chiqarishga ovoz hujumining xarakteriga, ovozning diapazoni va turiga, uning qanday qo'yilganligiga, shuningdek, ijrodagi o'sishida ko'zga tashlanadigan nuqsonlarga e'tibor bermog'i kerak. Bunda hammaga yaxshi tanish bo'lgan qo'shiqni aytirib sinash mashg'uloti o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu mashg'ulotda talabalarning ovoz imkoniyatlarini hisobga olib, ohista va bamaylixotir tezlikda yoki cho'zib aytiladigan qo'shiqni sinov uchun tanlash mumkin. Shundagina talabaning musiqa va ijrochilik qobiliyati qay darajada rivojlanayotganini ko'rish va kamchiliklarni aniqlash mumkin bo'ladi.

Vokal o'qituvchisi talabalarning ovozlari qay tariqa taraqqiy etib, musiqa sezgilari qanchalik o'sib borayotganini darslar jarayonida individual kuzatadi.

Talabalarning ovozi magnitafon tasmasiga alohida-alohida yozib olish ham ma'lum ahamiyatga ega bo'lib, u ovozni tarbiyalash borasida har bir talaba bilan yakka tartibda ish olib borishda ko'rsatmali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Vokal darslari o'rgatilayotgan qo'shiqlarning talabalar ijrosida yozib olinishi, keyin esa o'qituvchi va talabalarning o'zlari uni eshitib ko'rishlari, o'z navbatida, individual nazoratlarni kuchaytiribgina qolmay, shu bilan birga musiqa ijrochilik faoliyatida o'sishni ta'minlaydi, talabalarning qiziqishini yanadi kuchaytiradi.

Dars davomidagi musiqa ijrochiliga oid barcha ishlarda talaba ovozi jarangining sifatiga, xususan, ovoz tembrining asosiy jihatlari bo'lgan jarangdorlik, silliqlik, serparvozlik, vibrato, tiniqlik singari elementlarga e'tibor beriladi. Shuni unutmaslik kerakki, qo'shiqni shiddat bilan aytish talabaga ko'p zarar keltirib, ularning tabiiy o'sishlariga xalal beradi.

Talabalar qo'shiqni shiddat bilan, zo'riqib aytganlarida ovoz apparatlari buzilib, kasallanadi. Chunki, talabada ovoz chiqarish bilan bog'liq bo'lgan organlar hali o'suvchan xarakterda bo'ladi. Bundan tashqari, baqirib asar kuylash badiiy ijro

talablariga ham zid. U ovoz tembrini go'zalik va ifodalilikdan mahrum qilib qo'yadi.

Talabalar vokal darslarida bo'lganlarida qo'shiqni o'rtacha avjda aytishlari va bunda dinamik belgilar (forte va piano) dan oqilona foydalanishlari zarur. Talabalarning ko'pchiligida ovoz baland bo'lmasligi ham o'z-o'zidan malum o'qituvchi talabalar bilan muntazam ravishda ish olib borganda ularning ovozi silliqlashib hamma dinozonlarda tekis va ta'sirchan chiqadigan bo'ladi.

Vokal darslarida talaba ovozining jarangdorligini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, talabalardan kuchli ovozga emas, balki uning jilolari uyg'unligi ham talab etiladi. Ovozning kuchliligi va intonatsiyasi bilangina ish bitmaydi. Ovozda barcha elementlar ijro jarayonida uyg'unlashgan taqdirdagina qo'shiqchilik san'atida kuzatilgan maqsadga erishiladi. Bunga erishish, albatta, vokal o'qituvchisining mahoratiga bog'liq.

Yosh talabalar ovozidagi o'ziga xoslik ko'p hollarda ayon sezilib turmaydi. Shuning uchun ham ovoz me'yoriy ravishda rivojlanib borgan taqdirda (talaba zo'riqib ashula aytmaganda va ovozda burun yoki tomoqdan qo'shilgan qo'shimcha tovushlar bo'lmaganda) individual tembrlar qo'shiq jarangdorligiga halal bermay, aksincha uni boyitadi.

Har bir talabadan tembr uyg'unligini talab qilaverish yaramaydi. Jarangdorlikni saqlash qo'shiqbop ovozga xos bo'lgan xususiyatlar tarbiyasiga halal bermaydi.

Vokal darslarida talabalarning ovozlari tabiiy jarang kasb etishini tarbiyalash, asosan quyidagi jihatlarga bog'liqdir:

1. *Jarangdorlikka erishish.* Kuzatuv va tekshirishlarimiz talabalar ovozidagi jarangdorlik turlicha ifodalanishini ko'rsatadi. Shuning uchun ham, talabalarning ovoz jarangdorligiga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan vokal o'qituvchisi ularning yosh xususiyatlari doirasidagi imkoniyatlarini hisobga olgan holda ish ko'rishi lozim.
2. *Serparvozlikka erishish.* Talabalar ovozining serparvozligi ovoz jarangdorligi, avji va ijrochining yosh jihatdan imkoniyatlariga bog'liqdir.

3. *Vibratoning sayqallanishi.* Vibrato o'n to'rt-o'n besh yoshda o'zini ko'rsatadi. Talabalarning ovozida vibrato mavjudligi yaxshi seziladi.
4. *Jarangdorlikning tekisligiga erishish.* O'qituvchi talabalar bilan mustaqil ravishda ish olib borganida ular e'tiborini jarangdorlikda tabiiylikka intilishga qaratishi kerak bo'ladi. Bunda u ovoz past yoki baland chiqqan paytdagi o'zgarish holatini konkret misollarida ko'rsatib berishi zarur.

Vokal nutqning diksiyasi (tiniqligi) tovushlarning balandligiga, talabaning yoshi va nutq madaniyatiga, undoshlarning to'g'ri talaffuz qilinishiga, ijrochilik hamda uning umumiy saviyasiga bog'liqdir. Talabalardagi vokalbop ovozni tarbiyalash ishi mashg'ulotlarda muntazam ravishda olib borilishi lozim. Bunda vokal darslari va repertuarlari bo'yicha mashqlar ko'zga tutiladi. Vokal o'qituvchisi jarangdorlikdagi nozik o'zgarishlarni ham nazardan qoldirilmasligi va ularni to'g'ri yo'lga solishni o'ylashi kerak. Talabalarda vokal sezgisini tarbiyalashda ularning o'z ovozlari ongli ravishda tanqidiy munosabatda bo'lishlari ham nazoratdan chetda qolmasligi zarur. Har bir talaba o'z-o'zini kuzatib borishi o'qituvchining bu boradagi ishini bir muncha engillashtiradi.

Ijrodagi emotsional – estetik yo'nalish doimo zarur komponentdir. Darsni shunday tashkil qilish kerakki, darsdagilarning har bir ijrosi talabalarning emotsiyasiga ta'sir ko'rsatmay qolmasin. Talabalarda qiziqish uyg'onsa, ularning ishchanligi ortib, sezgirligi kuchayadi va dars yanada ta'sirchanlik kasb etadi.

Qo'shiq ijro etilayotgan paytda talabaning o'zini tutishi ham ma'lum ahamiyatga ega. Bunda gavdani tik tutish, elkani sal orqaroqqa olish, qo'lni tushirib turish, boshni to'g'ri va bemalol tutish, bo'yinni qayishtirmaslik kerak. O'tirgan holda ashula aytganda ham talabalarning gavdalari bukilmasligi va qo'llari tizzalarining ustida turishini nazoratdan qochirmaslik kerak. Gavda to'g'ri tutilishi, ko'krak qafasi rostlanishi qo'shiqbop nafasning ko'payishini ta'minlaydi, asta-sekin uni zo'raytirib beradi, havoni tejab ishlatishga o'rgatadi. Bosh va bo'yinning tabiiy holati ovoz apparatining to'g'ri ishlatishga imkon yaratadi, tomoq muskullari bemalol holda bo'ladi va qolaversa qo'shiq san'atining etikasi ham shuni taqozo qiladi.

Ijro jarayonini to'g'ri tashkil etishda talabanning umumiy faolligi va emotsional kayfiyati muhim rol o'ynaydi. Talabalar qo'shiq aytayotgan paytda lanj va bo'shashgan bo'lmasliklari kerak. Shu bilan birga o'ta hayajonlanmasliklari ham zarur. Bunday bo'lishi ovoz jarangdorligini va uning tabiiyligini buzib qo'yadi. Qo'shiqning ta'sirchanligiga putur etadi. Talaba qo'shiq aytayotganda faqat nafas olish yo'llarigina faol bo'lmay, balki butun organizmi ham faol holatda bo'ladi.

Ovoz hujumi deb vokal jamoasidagi barcha ovozlarning qo'shilib avjga chiqishiga aytiladi. Keskin hujum talabalar bilan vokal bo'yicha mashg'ulot olib borganda ayrim ifoda usuli sifatidagina qo'llanishi va ish berishi mumkin. Biroq o'shanda ham talaba ijrochilikda ma'lum tajriba ortirgan bo'lishi zarur. Aks holda, bu usulning sira ham nafi bo'lmaydi, aksincha, zarari tegadi.

Tovush hosil qilishda yumshoq tanglayning ildamligi va harakatchanligini oshirish ustida ishlash yaxshi natija beradi. Bunda:

- 1) yosh me'yoriga munosib keladigan jarangdorlikdan;
- 2) ma'lum birikmalardan (masalan, mi, ma, me kabi tovush birikmalaridan) foydalansa bo'ladi.

Qo'shiq aytayotganda ijrochining tovushi o'ziga xos jaranglashiga to'la erkinlik sezilib turmog'i lozim. Ashulabop nafasni tuta olish me'yori talabalarning ijrodagi muvaffaqiyatlarning asosiy ko'rinishlaridan biridir. Buning o'sishi ham musiqa faoliyati jarayonida ro'y beradi va ko'p jihatdan repertuar tanlash va vokal mashqlarining materialiga bog'liq bo'ladi.

Qo'shiqbop nafasni o'stirish bo'yicha maxsus talablar ijrochilik malakasini oshirishga xizmat qiladi. Bu talablar erkin nafas olish, elkani ko'tarmaslik, olingan nafasni shoshmasdan tejab-tergab chiqarish, bunda holatni o'zgartirmaslik, shoshqaloqlik qilib nafasni behuda sarflamasligi, ovozda jarangdorlikning bo'lishi singari muhit elementlardan iboratdir. Nafas olish tizimi rezanatorlik vazifasini ham bajargandan ijro paytida uni to'g'ri boshqarish lozim. Talabalar ovozining tabiiy ko'lamiga zid ishlar qilishga mutlaqo yo'l qo'yilmaydi.

Ovoz apparatini sog'lom saqlash va individual tarzba o'stirish uchun o'qituvchi talabalarning yoshini va ovoz imkoniyatlarini hisobga olgan holda tengdosh ijrochilarni guruhga ajratib mashg'ulot olib borishi lozim.

Vokal o'qituvchisi individual va jamoa suhbatlarda talabalarga ovozning jaranglashi yoshga bog'liqligi, unga hushyor va ongli munosabatda bo'lishi, avaylash, asrash, ijrochilik rejimiga qattiq amal qilish zarurligini erinmay tushuntirmog'i lozim. Bu gaplar faqat o'g'il bolalargagina emas, balki qizlarga ham taalluqli ekanligi o'qituvchining hamisha yodida turishi kerak.

Darslarni to'g'ri olib borish jarayonida ovozdagi ba'zi bir xastaliklar ham tuzalib ketishi mumkin. Bunda biz paylarning sira juftlashmasligi, kuchli tremolsiya, toliqish kabilarni ko'zda tutamiz. To'g'ri, bunday xastaliklar tezda tuzalib ketmaydi, bunga goho yillar kerak bo'ladi.

Vokal darslarida qizlarning ijrochilik rejimiga qat'iy amal qilishlarini alohida ko'zda tutish lozim. Chunki ular nozik bo'lib, o'zlariga xos kasalliklarni boshdan kechirishlari mumkin. Ular kasallik davrida uch to'rt kun sira kuylamasliklari kerak. Talabalarga vokal malakalarini shakllantirishda musiqa savodxonligi va musiqa jo'rligisiz ashula ayta olish ham katta ahamiyat kasb etadi. Musiqa asbobi jo'rligisiz (a capella) va rahbarsiz qo'shiq aytish san'atning o'ziga xos shaklidir. U talabaning musiqa sezgisi va ayniqsa, vokal hamda garmonik rivojlanishiga katta yordam beradi.

8. Vokal mashg'ulotlarida ovoz sozlash mashqlarining o'rni

O'qituvchi darslarni mazmunan boyitishda, avvalgi mavjud bo'lgan shakllarini, metodlarni o'zgartirishdan cho'chimasligi, darsni sifatini oshiradigan, boyitadigan barcha yangiliklarni darslarga kiritishi davr taqozosi bo'lib qolmoqda. Vokal darslarida jamoa bo'lib kuylash, musiqa madaniyati darslarida ovoz sozlash mashqlari vositasida ushbu darslarning sifatini, rang-barangligini qanday qilib yanada oshirish mumkin? Odatda, ovoz sozlash mashqlarida, musiqadagi Do, re, mi, fa, sol lya, si tovushlari - nomlari mashq sifatida kuylanadi. SHuningdek, Da, De, Di, Du yoki Ma, Me, Mi, Mu kabi hech qanday ma'no anglatmaydigan unli va unsiz harflar birikmalari kuylanadi. Yuqoridagi sanab o'tilgan tovush va tovush birikmalaridan

tashqari, ovoz sozlash mashqlariga “Chamandagul”, “Qorasoch”, “Yallama yorim”, “Oh, layli”, “Lolajon” kabi qo‘shiqlar va ulardan olingan lavhalarni ham kuylatish maqsadga muvofiqdir. Chunki o‘zbek xalq qo‘shiqlarining naqorat qismlari yoki ma’lum bir bo‘lagi kuylash uchun tanlab olinsa yaxshi natijalar beradi. Bu fikrni quyidagicha izohlashimiz mumkin:

1. Ma’lumki, vokal qo‘shiqchiligida harflarni ham, bo‘g‘inlarni ham bir tekisda jarangdor qilib kuylashga hamma qo‘shiq ijrochisi ham muvoffaq bo‘lavermaydi. Buning uchun kuylash davomida duch keladigan hamma harflarni ravon, bir xilda jarangdor kuylash uchun ijrochidan mashqlar bajarishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, xalq qo‘shiqlari mashq uchun olinganda kuylash uchun noqulay bo‘lgan “Ch”, “G”, “Sh” va boshqa bir qancha harflar kuylab o‘tiladi. Mashqlar davomida ushbu harflarni kuylay olish malakalari rivojlantiriladi.

2. Xalq qo‘shiqlari naqarat qismlari ko‘pincha kuyning tonikasidan subdominantasiga sakrashlardan iborat bo‘ladi. Demak, bunda xalq qo‘shiqlarini mashq sifatida kuylash jarayonida ijrochi o‘z ovozini kvarta, kvinta intervallari oralig‘ida sof intonatsiyada kuylay olish malakalarini egallaydi.

3. Vokal darslarida talabalarning xalq qo‘shiqlariga mehr-muhabbati yanada oshadi. Milliy qadryatlarni hurmat qilish, o‘rganish, milliy istiqlol g‘oyasining muhim yo‘nalishlaridan biridir.

4. Har qanday darsni bir xil qolipda bo‘lib qolishi, bilim oluvchilarga zerikarli tuyulishi tabiiy. Xalq qo‘shiqlarini ovoz sozlash mashqlari sifatida kuylanishi darsni rang-barangligini ta’minlaydi, hamda uni shaklan va mazmunan boyitadi.

Vokal ijrochiligi malakasini egallashda ovoz sozlash mashqlari katta rol o‘ynaydi. Vokal xor mashqlaridan ko‘zlangan asosiy maqsad – talabalar ovozlarini, engil va yorqin jarangdorligini saqlab, ovoz apparatini mustahkamlash, qo‘shiq aytishdagi nafas olish malakasini hosil qilish, ovoz diapazonini kengaytirish, xilma - xil qo‘shiq aytish malakalarini singdirishdir.

Ovoz sozlash mashqlari turlicha bo‘lib, har xil maqsadlarni ko‘zda tutadi: nafasni mustahkamlash, ovozni rivojlantirish, uning ravonligini, harakatchanligini ta’minlash, diapazonini kengaytirish, tovush hosil qilishda yagona usulni qo‘llash, sof

intonatsiyani yuzaga keltirish, garmonik uquvni o‘stirish, diksiya aniqligiga erishish va boshqalar.

Vokal rahbari ovoz sozlash mashqlarini talabani ovoz xususiyatlarini, kuylash imkoniyatlarini hisobga olib belgilaydi. Bu mashqlarning ayrimlarini shoshilmay, bemalol, tovushdan tovushga o‘tishda sillilik va aniqliqqa e‘tibor bergan holda kuylash lozim bo‘lsa, ayrimlarini unli tovushlarini sillik chiqarib, lablar faolligini oshirib, undosh tovushlarning aniq chiqishiga erishib, tiniq, jarangli va nafas kuchayishiga yordam beradigan holda ohangli qilib kuylamoq zarur.

Endi vokal ijrochligi darslarda quyidagi ovoz sozlash mashqlarini namuna sifatida tavsiya etamiz:

1. “Tiniq jaranglama tovush chiqarish”



2. Uzliksiz sadolanishga erishish:



3. Umumiy ohang holatiga erishish:



4. Ovozni shakllantirishga erishish:



5. Unli tovushlarni bir tekisda kuylash:



6. Ovoz apparatini va talaffuzni rivojlantirish:



7. Stakkato uslubida kuylash:



8. Ovoz harakatchanligini rivojlantirish:



9. Legato uslubida kuylashga erishish:



Vokal rahbari talabalarning musiqa qobiliyatlarini inobatga olib sodda va oddiy, murakkab mashqlardan, shuningdek, vokalistlardan foydalanib vokal ovozlarni shakllantirib boradi. Yana solfedjio fanidagi mashqlardan, bolalar va xalq qo‘shiqalarining ayrim qismlaridan vokal mashqlari sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Vokal mashqlarini kuylatishda unli tovushlarni to‘g‘ri aytish, undosh tovushlarni aniq talaffuz qilish, nafas olish va nafas chiqarishga qat‘iy e‘tibor beriladi.

Xullas, bu mashqlar xonandalarga ifodali ijroning texnik va badiiy usullarini egallashga yordam beradi. Mashqlar bilan jiddiy shug‘ullanilmasa, asar ijro etishni o‘rganish jarayoni cho‘zilib ketadi. Mashqlar musiqa material hamda texnik vazifalarga ko‘ra puxta va xilma-xil tanlanishi lozim. Boshlanishida oddiy mashqlar tanlanib, asta-sekin murakkabiga o‘tib borish kerak. Mashqlar o‘rta dinamikada erkin nafas almashinishida ijro etiladi.

Mashg‘ulot yoki konsert ijrosi oldidan qo‘llaniladigan vokal mashqlari ovozlarni kuylashga tayyorlash deyiladi. Bunday mashqlar ovoz apparatlarini ishga tushirish uchun ahamiyatlidir. Ovozlarini kuylashga tayyorlash mashqlarini o‘qituvchi belgilab, u 5-10 daqiqa, goho 10-15 daqiqa bo‘lishi mumkin. Mashqlar jo‘rli kuylanganda tovush sozligini tekshirib turishga imkon bo‘ladi. Agar mashqlar jo‘rsiz

o'tkazilsa, xonandaning ichki uquvi o'tkirlashadi. Maqsadga qarab ikkala ovozni ham kuylashga tayyorlashdan foydalanish mumkin, ammo jo'rsiz kuylash turini ko'proq qo'llash maqsadga muvofiqdir.

9.Vokal fani o'qituvchisining vazifalari

Vokal o'qituvchisi o'z zimmasiga muhim va mas'uliyatli vazifa turganligini sira ham unutmash kerak. Binobarin vokal mashg'ulotlari tartibli, uyushqoqlik bilan ta'sirchan va metodik jihatdan maqsadga muvofiq darajada muntazam o'tkazilib bormog'i lozim.

Vokal darslarining ham yo'qlamasi bo'lib, unga qatnashuvchilarning davomadi va o'zlashtirishi, talabalarda o'rgatilayotgan musiqa me'yorlarining nomi, mazmuni va vaqti qayd etib boriladi. Bu narsa boshqa fanlar qatori talabalarning vokal mashg'ulotlaridan o'zlashtirish ko'rsatkichlarini kuzatib borishga, ishdagi ba'zi bir nuqsonlarga o'z vaqtida chek qo'yishga imkon beradi.

Vokal o'qituvchisining dars rejasida uning har oydagi mashg'ulotlarda taqdim qilmoqchi bo'lgan materiallari, vokal darsi bo'ladigan kun va soati ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Vokal o'qituvchisining dars rejasi, yo'qlamasi va ko'rsatmali qurollarining qay ahvolda ekanligi kafedra mudirining nazoratidan o'tib turishi o'z-o'zidan ma'lum, albatta. Bu esa, maktab o'qituvchisi zimmasidagi mas'uliyat katta ekanligini eslatib turadi.

Talabalarni vokal darslariga tayyorlash ancha mas'uliyatli ish. Chunki dars talaba uchun yangi omildir. Vokal darslarida talaba o'zi g'oyibona tanish bo'lgan musiqa va qo'shiq olami bilan tanishadi, bunda uning iste'dod kurtaklari riojlanib, qobiliyati va imkoniyatlari yuzaga chiqq boshlaydi.

Musiqa va qo'shiqqa ixlosmand, yaxshigina ovozi tufayli istiqboli bo'lgan talabalarni vokal darslarga jalb etish, ular bilan samarali ish olib borish faqat kafedra va vokal rahbarining ishi bo'lib qolmay, balki butun jamoatchilikning ham ishi bo'lishi kerak. Chunki, kelajak yoshlarniki, kelajak uchun qayg'urish esa har bir pedagogning burchidir. Bu ish vokal o'qituvchisidan bag'oyat ehtiyotkorlik, hushyorlik, mas'uliyat va mahorat talab qiladi. Chunki darsda qatnashish ishtiyoqida

bo'lgan talaba qo'shiq o'rganishni istaydi va bunga intiladi. Shunda o'qituvchi undagi qobiliyatni to'g'ri va o'z vaqtida payqab, ovoz imkoniyatlarini o'rgansa, uni yo'lga qo'yish, to'g'ri rivojlantirish bilan mashg'ul bo'lsa, talabaning ovozigga zarar etmaydi. To'g'ri kelgan qo'shiqni aytavermaydi, musiqa sezgisini to'g'ri rivojlantiradi.

O'quvchilarga biror qo'shiqni o'rgatishda, avvalo, o'sha asarning mavzusi va mazmuni, ijodkorning kimligi, san'atda tutgan o'rni haqida iloji boricha kengroq gapirib berishi kerak. Talaba o'rganiladigan qo'shiq haqida to'la tasavvurga ega bo'lgandagina unga qiziqadi va ishtiyoq bilan o'rganadi. Bunda vokal o'qituvchisining o'zi qo'shiqni bir ikki marta yaxshilab ijro etib berishni unutmash kerak. Bunda u asarga talabalar e'tiborini jalb qiladi.

Qo'shiqning matni yozdirilib, yod oldirilgandan keyin uni o'rgatishga krishiladi, musiqaning taktlariga tushish, uni buzmaslik, ritmga etibor berish qayta-qayta uqtiriladi va har qadamda kuzatib turiladi.

Vokal darslarida talabalarga engil va oson qo'shiqlar o'rgatilgandan keyin murakkab asarlar o'tiladi. Bu, endi o'qituvchini ham, talabalarni ham uncha qiynamaydi. Chunki ma'lum tayyorgarlik va mashq murakkab qo'shiqlarni o'rganib olishni bir muncha yengillashtiradi. Bu esa vokal repertuarini kompozitorlarimizning baxtiyor avlod madhiga, tabiat va ona Vatan, do'stlik va qardoshlik tarannumiga bag'ishlangan eng yaxshi asarlari bilan boyitish imkonini beradi.

Vokal darslarida talabalar gachi uch-to'rtta qo'shiqni ko'pchilik bo'lib yoki yakka holda ijro etishni o'rganib olgan bo'lishlariga qaramay, birdan murakkab qo'shqlarga o'tish yaramaydi. Chunki darslarda soddadan murakkabga borish kerak, yengil vokalistlar va qo'shiqlar ma'lum tayyorgarlikdan keyin o'rgatiladi.

Bir vokal asarini bir necha talabaga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Bu ish murakkab jarayon bo'lib, bunda obrazlar uyg'unligi muhim rol o'ynaydi. Qo'shiqning qanday boshlanishi, qanday tempda davom etishi, kulminatsiyasi va tugashi har bir ijrochiga ravshan bo'lmasa, musiqasi yaxshi o'zlashtirilmasa, kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi.

Vokal darsida qatnashuvchi talabalar bilan dars olib borish ishi kundan kunga yengillashib boradi, chunki ular endi musiqa olami bilan tanishib, uning sirlarini egallashga kirishgan va ma'lum bir tizimga tusha boshlagan bo'ladi.

Musiqiy ta'lim yo'nalishidagi vokal darslari quyidagi vazifalarni bajarishga da'vat etilgan:

- talabalarga vokal san'ati yordamida g'oyaviy-estetik tarbiya berish, ularni garmonik rivojlangan kishilar bo'lib etishishlariga ko'maklashish;
- talabalardagi vokal sezgisi, vokal – texnik va ijrochilik qobiliyatlarini o'stirish, ovozlarni parvarish qilish va mustahkamlash. Ulardagi vokal malakalari va iqtidorlarini har jihatdan rivojlantirish, ovoz imkoniyatlariga mos keladigan turli qo'shiqlarni o'rganib olishlari va to'g'ri ijro etishlariga erishish.

Vokal asoslari darsi pedagogika fani to'plagan boy tajribalar va ilg'or metodlar asosida olib borilmog'i lozim. Darslar tushunarli, ilmiy, ta'sirchan, qiziqarli va ko'rsatmali bo'lib, talabalarning faol ishtirokida o'tkazilmog'i darkor. Bu hol talabalarning darslarga ongli munosabatini taqozo etadi. Vokal o'qituvchisining darsdagi talabalar bilan individual ish olib borishi ular iste'dodining rivojlanishini to'g'ri yo'lga soladi, talabalarning ovoz paylari asta-sekin rivojlanib borishiga putur etkazmagan holda, badiiy didlari oshishi va vokal texnikasini egallashlari uyg'un holda borishini ta'minlaydi. Ko'rsatmalik asosida ilg'or metod va ta'sirchan vositalardan foydalanish darslarning mazmundorligini oshiradi.

Vokal o'qituvchisi san'atga ixlosmand talabalarning har biri bilan alohida tanishib, suhbatlashib, ovoz apparatlarining ahvolini o'rganishi zarur. Bunda u talabalarning vokal qobiliyatini birmuncha aniqlab olishga muvoffaq bo'ladi.

Shuni ham aytib o'tish kerakki, vokal darsiga ilk qatnashuvchi talabalar tezroq qo'shiq o'rganish va aytish payida bo'ladilar. Ularning ayrimlari radio va televidenie orqali berilgan qo'shiqlarni yodlab olib o'zlaricha aytib ham yuradilar. Vokal o'qituvchisi talabalarni to'plaganda ularning o'zlaricha qo'shiq o'rganishlari ovoz apparatlariga ziyon yetkazishi, ovozni ishdan chiqarishi mumkinligi tushuntirishi kerak.

To'g'ri nafas olish, ovoz apparatining anotomiyasi va fiziologiyasi, ovozni to'g'ri chiqarish, vokal nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan masalalar yuzasidan o'tkaziladigan qo'shimcha suhbatlar esa talabalarning bilim darajasini har jihatdan mustahkamlaydi, ularning bilim doirasini kengaytiradi. Kompozitorlarimizning barkamol avlodga atab yozgan qo'shiqlari, xalq ijodi namunalari, vokalistlar vokal ijroiligining markazini tashkil qilish kerak.

Ma'lumki, ovozlar turlicha diapazonga ega bo'ladi. Bu xususiyat o'z navbatida vokal ijrochiligidagi ovozlarning xilma-xilligiga olib keluvchi dastlabki faktordir. Vokal darslariga qatnashuvchilar ovozining diapazoni aksari bir yoki ikki oktava (tenor yoki bariton) bo'lganida o'qituvchining ishi birmuncha engillashgan bo'ladi. Biroq bunda ham talabalar ovozida bir xillik xavfi tug'ilib qolardi. Vokalchi talabalarning ko'p ovozli repertuaridan foydalanish ularga xor qo'shiqlarini, hatto vokal kantatalarini o'rgatish imkonini tug'diradi.

Yangi qo'shiqning musiqasi tashqaridan qaragandan ijrochi uchun tayyor qolipday tuyuladi. Bu noto'g'ri tushunchadir. Qo'shiqni repertuariga kiritmoqchi bo'lgan ijrochi unga o'z hissasini qo'shmasa, qo'shiq tinglovchiga manzur bo'lmaydi. Bu esa, ijroda original, ya'ni o'ziga xos yo'ldan bormoq kerak, degan so'zdir.

Musiqqa o'qituvchisi talabalarga qo'shiq o'rgatayotganda ishni hali keng tinglovchilar ommasiga tanish bo'lmagan ommobop, engil va yaxshi qo'shiqlarni o'rgatishdan boshlagani ma'qul. Negaki, birinchidan, yangi qo'shiqning ta'siri ilgari eshitilib yurgan qo'shiqlarga nisbatan boshqacharoq, kuchliroq bo'ladi.

Vokal darslarida talabalarga o'rgatiladigan qo'shiqlarni tanlash vokal o'qituvchisining ixtiyorida bo'lib, bunda unga, birinchi navbatda, talabalarda estetik tarbiyani takomillashtiruvchi metodik qo'llanmalar, qo'shiqlar to'plamlari yordamga keladi. Qo'shiqni tanlashda estetik tarbiyani amlaga oshirishni sira ham unutmazlik kerak. Chunki har qanday qo'shiq ham talabalarga ko'ngildagidek estetik tarbiya bera olmaydi.

Vokal o'qituvchisi o'z ishining mazmuni va ta'sirchan chiqishi uchun turli manbalarga murojaat qilishi mumkin. U ish jarayonida radio va televidenie orqali

borilayotgan hamda konsert zallarida ijro etilayotgan, talabalar har jihatdan mos keladigan, estetik ahamiyatga ega qo'shiqlarnigina sinchkovlik bilan tanlab, repertuarga kiritish mumkin. Vokal darslarida talaba bilan tanishish muhim va mas'uliyatli jarayondir. Chunki, hamma narsa boshdanoq puxta va aniq bo'lishi kerak. Ba'zi taassurotlar kishini aldab qo'yishi ham mumkin. Ko'pincha yangi talabani sinab ko'rishda dastavval uning qobiliyatini tekshirib ko'riladi. Bunda vokal darsiga qatnashuvchi talabaning yaxshi ovozga ega bo'lishi bilan birga, shaklan vokal xususiyatlari (ovozning chiroyli bo'lishi, quvvati, diapazoni va silliqligi), musiqiyligi, ijroning atrofda qilargacha ta'siri, nutqning ravonligi, umuman, madaniy ijro qilish uslubini sezish va hatto tashqi qiyofasi, artistik ifodalari ham inobatga olinadi.

Ovoz yaxshi bo'lib, musiqa bilan ijro etish qobiliyati pastroq bo'lsa, uni rivojlantirish kerak. Aksincha ovozda kamchiliklar bo'lsa, darslar davomida bularni yo'qotish yo'llarini qidirish lozim. Vokal o'qituvchisi mana shu eng kerakli xususiyatlar ustida ishlash imkoniyatiga ega. Lekin talabalarning qobiliyatini tekshirishda har doim ham to'g'ri xulosaga kelaverish qiyin. Talabada yaxshi ovoz, qobiliyat bo'lsa ham, ba'zan u o'z mahoratini ko'rsata olmaydi. Chunki boshqa bir kishining oldida qo'shiq aytganda ayrim talabalar qiynaladi. Uning uchun eng kuchli ta'sir tomoshabindir. Bunday holda talabalarning miya organlari faolligi to'xtaydi, shu tufayli talabalarning yaroqli ovoz va ijrochilik sifatlarini ko'rsata olmaydilar. So'zlarni unutish, musiqadan past yoki baland aytish va shunga o'xshash kamchiliklar tekshirish ro'y berishi mumkin. Bunday hollarda vokal o'qituvchisi haqiqiy holatni hushyorlik bilan payqab olishi kerak.

Qo'shiqchilik kishidan butun umrini, iste'dod va mehnatni talab qiladigan san'atdir. Qo'shiqchilik san'ati professional san'at turlari orasida o'zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Vokal san'atining o'ziga xos tomonlari borki, bunda yaxshi ovozga ega bo'lishi bilan ish bitmaydi. Tabiat in'om etgan xushovozdan to'g'ri foydalana bilmoq uchun bu san'at sirlarini qunt bilan, erinmay egallab olishga to'g'ri keladi.

9. Vokal mashg'ulotlariga repertuar tanlash va asarlar ustida ishlash

“Vokal” mashg'ulotlariga to'g'ri vokal asarlarini tanlash bevosita o'qituvchining birinchi galdagi vazifalaridan hisoblanadi. Asar tanlashda birinchi navbatda vokalistlarni o'quv dasturiga kiritish zarur bo'ladi. Chunki barcha mamlakatlar vocal qo'shiqchiligi amaliyotiga shu uslub qo'llaniladi. Romans va arealardan, ansambllardan esa asta sekinlik bilan talabalarning kuylash malakalarining shakllanishi darajasiga qarab dasturga kiritib boriladi.

Talabaga qo'shiqchilik bo'yicha bilim berish jarayoni ko'p qirralidir. Vokal ifodali badiiy ijrosi talabadan qo'shiqchilik malakalarini puxta egallashni taqozo etadi. Aks holda qo'shiq ijrosi kutilgan samarani bermaydi va asar ta'sirsiz bo'ladi.

Vokal rahbari talabaning musiqa sezgisini har tomonlama o'stirib borishi negizida uning qo'shiqbop ovozini to'g'ri tarbiyalashni unutmashligi lozim.

Talaba qo'shiqni ijro etar ekan u o'zining kuylashidan estetik zavqlana olishiga erishishi kerak. Biroq bu jarayon yengil kechmaydi, aksincha yaxshi tayyorgarlik va ijodiy izlanishni talab qiladi. Talaba ijro etayotgan asarining ruhiga chuqur borgan taqdirdagina uning ijrosi go'zal va ifodali hamda maftunkor chiqishi mumkin. SHuning uchun ham talabalarni qo'shiq ijrosiga emotsional, ijodiy munosabatda bo'lishiga, ijroda asardagi g'oyani ifodalashga o'rgatish juda muhimdir. Bu esa talabalarning ovozlarini o'stirish nuqtai nazaridan ham ahamiyatlidir. Chunki ovoz apparatining umumiy faoliyati qo'shiqqa emotsional munosabatda bo'lganidagina faollashadi.

Musiqa rahbari o'z faoliyatida har bir talaba bilan yakka tartibda ish olib borib, ovozlar tarbiyasini yo'lga qo'ysa, uning vokal ijrochiliga doir ishlari ham hal bo'laveradi, guruh oldiga qo'yilgan vazifalarning bajarilishiga ham yo'l ochiladi.

Yoshlarnng ovoz apparatlari, turgan gapki, ancha mo'rt va nozik bo'ladi. Ular har jihatdan o'sib borishlari bilan bir qatorda, bunga mos holda ovoz apparatlari ham o'zgarib boradiki, bu jarayon muntazam va uzluksizdir. Shuning uchun vokal rahbari dars o'tkazgan vaqtlarida rahbari talabalarning ovozini muhofaza qilish, asrash va to'g'ri o'stirishga ham jiddiy e'tibor qilishi kerak.

Qo'shiq aytish, o'z tabiatiga ko'ra, kompleks jarayon hisoblanadi. Talaba qo'shiq aytganda uning butun organizmi ishga tushadi. Bunda hammasidan ham organizmning ma'lum bir qismi to'la faol ishlaydi, ya'ni tovush hosil qilishida artikulyasion, nafas, asab – muskul apparati o'zini ko'rsatadi. Ulardan birortasining noto'g'ri ishlashi ashulabop ovoz chiqishi yohud me'yoriy oqimiga xalal beradi. Shu sababli talabaning ijrochilik malakasini tarbiyalash ishi kompleks tarzda olib borilishi va bunda uzilishga yo'l qo'yilmasligi zarur.

O'qituvchi talaba ovozini yakka holda eshitib, ko'rikdan o'tkazib turganida, avvalo, undagi musiqa sezgisining qay darajada o'sganligiga, ovoz ohangidagi o'zgarishlarga, nafas chiqarishiga, ovoz hujumining xarakteriga, ovoz ko'lami va turiga, uning qanday qo'yilganligiga, shuningdek, ijrodagi o'sishda ko'zga tashlanadigan nuqsonlarga e'tibor bermog'i kerak. Bunda hammaga yaxshi tanish bo'lgan qo'shiqni aytirib sinash mashg'uloti o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bu mashg'ulotda talabalarning ovoz imkoniyatlarini hisobga olib, ohista va bamaylixotir tezlikda yohud cho'zib aytiladigan qo'shiqni sinov uchun tanlash mumkin. Shundagina talabaning musiqa va ijrochilik qobiliyati qay darajada rivojlanayotganligini ko'rish va kamchiliklarni aniqlash mumkin bo'ladi.

Pedagog talabalarni ovozlari qay tariqa taraqqiy etib, musiqa sezgilari qanchalik o'sib borayoiganligini yiliga to'rt marta yakka (individual) tarzda kuzatib boradi. Mashg'ulotlar jarayonida o'rgatilayotgan qo'shiqlarning talaba ijrosida yozib olinishi, keyin esa vokal o'qituvchisi va talabasini o'zi uni eshitib ko'rishlari, o'z navbatida, individual nazoratni kuchaytiribgina qolmay, shu bilan birga musiqa ijrochilik faoliyatida o'sishni ta'minlaydi, talabaning vokal janriga qiziqishini yanada ortiradi.

Yoshlar vokal asarlarini baqirib, zo'riqib kuylaganlarida ovoz apparatlari buzilib, kasallanadi. Chunki yoshlarda ovoz chiqarish bilan bog'liq bo'lgan organlar o'suvchan xarakterda bo'ladi. Bundan tashqari, asarni baqirib kuylash badiiy ijro talablariga ham zid. U ovoz tembrini go'zallik va ifoalilikdan mahrum qilib qo'yadi.

Vokal darslarida talabalar qo'shiqni o'rtacha avjda aytishlari va bunda dinamik ottenkalar (forte va piano) dan oqilona foydalanishlari zarur. Talabalarning ba'zi

birlarida ovoz avji baland bo'lmashligi ham o'z-o'zidan ma'lum. Pedagog talabalar bilan muntazam ravishda ish olib borganida ularning ovozi silliqlashib, hamma diapazonlarda to'kis va ta'sirchan bo'ladi.

Mashg'ulotlarning asosiy maqsadlaridan biri shuki, har bir talabaning individual ijrosi o'ziga yarasha jarang bersa yaxshi bo'ladi, shunda uning ovozini asta-sekin kengroq diapazonlarga o'tkazish va va sinab ko'rish osonlashadi. Bu esa talabaning ovozi har jihatdan baquvvatlashadi degan so'zdir.

Mashg'ulotlar davomida talaba ovozining jarangdorligini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, vokal ijrochilaridan kuchli ovozgina emas, vokalda uning jilolari uyg'unligi ham talab etiladi. Ovozning kuchliligi va intonatsiyasi bilangina ish bitmaydi. Ovozda barcha elementlar ijro jarayonida uyg'unlashgan taqdiridagina vokal san'atida kuzatilgan maqsadga erishiladi. Bunga erishish, birinchi navbatda, vokal ijrochiligi fani o'qituvchisining mahoratiga bog'liq.

